Abstract. *This article analyzes the issues of improving the metrological support of measurement methods and measuring instruments used to determine the humidity of solid, liquid and soluble materials. The advantages and limitations of modern humidity sensors, dielectric, infrared and thermogravimetric measurement methods are studied. A comprehensive approach to the assessment of metrological characteristics, such as sensitivity, repeatability, stability, measurement uncertainty, and calibration intervals, is proposed. In the course of the study, a universal scheme for determining the moisture content of solid, liquid (suspensions, chemical solutions) and bulk (grain, granular raw materials) materials was developed. An algorithm is*

presented aimed at carrying out metrological verification of moisture meters and increasing their reliability. The results obtained can have practical applications in the field of materials processing, agricultural technologies, chemical industry and environmental monitoring.

Key words: *humidity measurement; metrological support; solid materials; liquid materials; volatile materials; sensor technologies; repeatability; measurement uncertainty; calibration; verification.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы совершенствования метрологического обеспечения методов измерений и измерительных приборов, используемых для определения влажности твердых, жидких и растворимых материалов. Изучены преимущества и ограничения современных датчиков влажности, диэлектрических, инфракрасных и термогравиметрических методов измерения. Предложен комплексный подход к оценке метрологических характеристик — чувствительности, повторяемости, стабильности, неопределенности измерений и интервалов калибровки. В ходе исследования была разработана универсальная схема определения влажности твердых, жидких (суспензии, химические растворы) и сқпучих (зерно, грануловое сырье) материалов. Представлен алгоритм, направленный на проведение метрологической поверки влагомеров и повышение их надежности. Полученные результаты могут иметь практическое применение в области переработки материалов, сельскохозяйственных технологий, химической промышленности и экологического мониторинга.*

Ключевые слова: *измерение влажности; метрологическое обеспечение; твердые материалы; жидкие материалы; летучие материалы; сенсорные технологии; повторяемость; неопределенность измерений; калибровка; верификация.*

Kirish.

Materiallar namligini aniqlash va uning metrologik ta’minotini ta’minlash sanoatning deyarli barcha sohalarida – qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, kimyo va farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishi, qurilish materiallari texnologiyalari, kompozitsion materiallar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida muhim amaliy ahamiyatga ega. Namlik materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari, saqlash barqarorligi, ishlov berish texnologiyalari, energetik iste’moli va umumiy mahsulot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois namlikni aniq va ishonchli o‘lchash – texnologik jarayonlarni optimal boshqarish, xom ashyo holatini baholash va attestatsiyadan o‘tkazish, shuningdek, standartlashtirish va sertifikatlash amaliyotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Materiallar turining xilma-xilligi – qattiq (kompozitlar, polimerlar, metall-matritsali mavodlar), suyuq (suspenziyalar, eritmalar, reaktiv muhitlar) va sochiluvchan (don, kukunlar, granulalar) – namlikni aniqlash usullariga nisbatan turlicha talablarni yuklaydi. Qattiq materiallarda namlikning mikrostruktura bilan bog‘liqligi, suyuq muhitlarda diffuziya va bug‘lanish jarayonlari, sochiluvchan materiallarda esa don va zarrachalarning bir xil bo‘lmagan tuzilishi namlikni o‘lchashda noaniqlikni oshiradi. Shu bois, material tabiatiga mos va universal yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Muammonning dolzarbligi va mavjud ilmiy-amaliy muammolar

Hozirgi kunda namlikni o‘lchash sohasida qator hal etilmagan muammolar mavjud:

Metrologik birxillikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi. Ko‘plab amaliy muhitlarda turli turdagi sensorlar qo‘llaniladi, lekin ularning kalibrovka intervallari, o‘lchash noaniqligi, sezgirlik va uzoq muddatli barqarorligi bo‘yicha yagona me’yoriy yondashuvlar mavjud emas. Bu esa natijalarning solishtiriluvchanligi va qayta ishlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Namlikning material strukturasiga bog‘liqligi. Kompozitsion materiallarda namlik mikroporalar, kapillyarlar yoki polimer matritsasiga bog‘liq holda namlanadi. Bunday murakkab strukturalarda klassik infraqizil, dielektrik yoki termogravimetrik usullar har doim ham to‘liq adekvat natija bermaydi.

Sochiluvchan materiallardagi birxilsizlik muammosi. Don, kukun va granula kabi materiallarda namlik zarralar o‘rtasida noteng tarqaladi. Bu esa o‘lchashni xavfli darajada variativ qiladi. Bir nuqtadan olingan namuna butun hajmni ifodalamasligi mumkin.

Suyuq muhitlarda namlik dinamikasining yuqori o‘zgaruvchanligi. Suspenziya va eritmalarda harorat, bug‘lanish va kondensatsiya jarayonlari namlikning real-time nazoratini qiyinlashtiradi. Klassik laboratoriya usullari bunday sharoitlarda yetarli emas.

Sensorlar ishonchliligining texnologiya davomida pasayishi. Ayniqsa infraqizil va dielektrik sensorlarda yuza ifloslanishi, namlikdan shishib ketish, ishchilarning noto‘g‘ri ekspluatatsiyasi sababli vaqt o‘tishi bilan o‘lchash aniqligi pasayadi.

Kalibrovka va verifikatsiyaning standart algoritmlari yetishmasligi. Ishlab chiqarilgan qurilmalarning aksariyatida kalibrovka faqat dastlabki bosqichda amalga oshiriladi. Real ish sharoitida sensor xususiyatlari o‘zgarsa ham, kalibrovkani avtomatik yoki jariy tarzda tuzatish mexanizmlari yo‘q.

Tadqiqotning maqsadi.

Turli tabiatga ega qattiq, suyuq va sochiluvchan materiallar namligini aniqlash uchun qo‘llaniladigan o‘lchash usullari va vositalarining metrologik ta’minotini takomillashtirish, ularning ishonchliligi va aniqligini ta’minlovchi yondashuvlar va algoritmlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotlar tahlili.

Materiallar namligini aniqlash bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar turli fizik prinsiplarga asoslangan o‘lchash usullarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Qattiq materiallarda namlik mikrostruktura bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, infraqizil spektroskopiya (NIR) usuli keng o‘rganilgan bo‘lib, uning afzalliklari tezkorlik va kontaktsiz o‘lchash imkoniyati bilan bog‘liqdir [1]. Biroq tadqiqotlar NIR usulining yuzasining ifloslanishi va material tarkibidagi nobarqaror optik xossalar sababli noaniqlikka olib kelishi mumkinligini ham ko‘rsatadi [2].

Dielektrik (RF va MW) usullar ham qattiq va sochiluvchan materiallar namligini baholashda keng qo‘llaniladi. Mualliflar dielektrik doimiylikning namlik bilan korrelyatsiyasi yuqori ekanini qayd etgan, biroq zarralarning geometrik shakli va zichligi o‘lchash natijalarida variativlik keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlaydi [3]. Ba’zi ishlar MW diapazonlarini qo‘llash orqali signalning material tuzilishiga kamroq bog‘liq bo‘lishiga erishgan [4].

Suyuq muhitlarda namlikni aniqlash suspenziya va eritmalardagi bug‘lanish, kondensatsiya va diffuziya jarayonlari bilan bog‘liq muammolar tufayli qiyin kechadi. Termogravimetrik usullar yuqori aniqlik berishiga qaramay, ularning asosiy cheklovi — laboratoriya sharoitiga bog‘liqligi va real-vaqt monitoringida samarasizligi hisoblanadi [5]. Shu bois suyuq muhitlarda onlayn-nazorat uchun optik va ultratovush sensorlari bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda [6].

Sochiluvchan materiallar (don, kukun, granulalar) bo‘yicha tadqiqotlar ko‘p hollarda namlikning birxil taqsimlanmaganligi muammosiga duch keladi. Mualliflar namunalardan olinadigan ma’lumotning butun hajmni aks ettirmasligi o‘lchashda katta muntazam xatolarga olib kelishi mumkinligini qayd etadi [7]. Bunday materiallar uchun blijniy spektrli NIR va mikroto‘lqinli usullarni gibrid qo‘llash taklif qilingan [8].

Zamonaviy tadqiqotlarda sensorlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa infraqizil va dielektrik sensorlarda harorat va muhit o‘zgarishi sezgirlikning pasayishiga olib kelishi qayd etilgan [9]. Shu munosabat bilan, avtomatlashtirilgan kalibrovka va adaptiv tuzatish algoritmlarini joriy etish bo‘yicha bir qator ishlanmalar taklif qilingan [10].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili namlikni o‘lchash vositalari uchun metrologik ta’minotning yaxlit va universal modellari yetishmasligini ko‘rsatadi. Bu esa turli materiallar tabiatiga mos, yuqori ishonchlilikka ega adaptiv sensor tizimlarini ishlab chiqishni dolzarb qilib qo‘yadi.

Materiallar.

Tadqiqotda uch asosiy turdagi materiallardan foydalanilgan.

Qattiq materiallar: Kompozit va polimer asosli namunalar, shuningdek kimyoviy qo‘shilmalardan tashkil topgan materiallar. Namlikni aniqlashda mikro- va makrostruktura ta’siri tahlil qilindi.

Suyuq materiallar: Suspenziyalar, eritmalar va reaktiv muhitlar. Bu materiallar uchun bug‘lanish, kondensatsiya va diffuziya jarayonlari namlik o‘lchash natijasiga ta’sir ko‘rsatishi hisobga olindi.

Sochiluvchan materiallar: Don, kukun va granula shaklidagi xom ashyo. Namlikning birxilsiz taqsimlanishi va zarralar geometriyasi ko‘rib chiqildi.

Barcha materiallar laboratoriya sharoitida standart temperatura va namlikda (22±2°C, 50±5% RH) saqlandi.

Usullar.

Namlikni aniqlash usullari.

Tadqiqotda namlikni aniqlash uchun quyidagi usullar qo‘llanildi:

Infraqizil (NIR) spektroskopiya. Qattiq va sochiluvchan materiallar uchun tezkor va kontaktsiz o‘lchash. Natijalar diffuziya va namlik taqsimotiga bog‘liq tahlil qilindi [11].

Dielektrik / radiochastotali (RF) usul. Qattiq va sochiluvchan materiallar uchun dielektrik doimiylikni o‘lchash orqali namlik aniqlandi [12].

Mikroto‘lqinli usul. Qattiq va sochiluvchan materiallarda gibrid sensor tizimi bilan qo‘llanildi [13].

Termogravimetrik usul. Suyuq va suspenziya muhitlarida namlikni aniqlash. Materiallar qisman bug‘lanishi va massasining o‘zgarishi qayd qilindi [14].

Optik va ultratovush sensorlar. Suyuq muhitlarda real-time monitoring uchun [15].

Eksperimental dastur va namuna olish. Har bir turdan 5–10 ta takror namuna olindi. Har bir namunaning namligi 3–5 marta qaytala qilindi va olingan natijalarning o‘rta arifmetik qiymati hisoblandi. Qattiq va sochiluvchan materiallarda namlik taqsimoti gistogramma va statistik usullar bilan tahlil qilindi.

Metrologik ta’minlash va kalibrovka. Barcha sensorlar va o‘lchash qurilmalari laboratoriya standartlari bo‘yicha kalibrovka qilindi. Kalibrovka uchun standart namuna

namliklari ISO 6540:2020 muvofiq ishlatildi. Har bir sensorning takrorlanuvchanligi, sezgirligi va barqarorligi baholandi [10-15].

Ma’lumotlarni qayta ishlash. Har bir usul bo‘yicha olingan ma’lumotlar Microsoft Excel va MATLAB orqali tahlil qilindi. Statistik tahlilda o‘rta qiymat, standart chetlanish va variativlik koeffitsienti hisoblandi. Qattiq, suyuq va sochiluvchan materiallar uchun namlikni aniqlash modellari yaratildi.

Matematik model

Materiallar namligini aniqlash jarayonida o‘lchash tizimining ishonchliligi yuqori darajada **metrologik modellashtirish** bilan bog‘liq. Tadqiqotda namlikni aniqlashning funksional bog‘lanishi, o‘lchov vositalarining statik va dinamik xususiyatlari hamda xatolar tarkibini matematik model doirasida tavsiflash taklif etildi.

1. Namlikni o‘lchashning asosiy matematik ifodasi

Materialning haqiqiy namligi W_{real} va asbob ko‘rsatgan namlik W_{meas} orasidagi bog‘lanish kuyidagi ko‘rinishda qabul qilindi:

$$W_{meas} = f(X, T, \rho, \varepsilon, C) + \Delta_{sys} + \Delta_{rqnd} \quad (1)$$

bu yerda: X — sensor chiqish signali (tok yoki kuchlanish), T — harorat, ρ — material zichligi, ε — dielektrik doimiy, C — namlikka ta’sir qiluvchi konstruktiv parametrlar, Δ_{sys} — muntazam xato, Δ_{rqnd} — tasodifiy xato.

Funksional bog‘lanish $f(\cdot)$ tadqiqotda eksperimetal ma’lumotlar asosida tanlangan regressiya modeli yordamida aniqlandi.

2. Regressiya modeli uchun tenglama

Pegressiya modeli quyidagi ko‘rinishda qabul qilindi:

$$W_{meas} = a_0 + a_1 X + a_2 T + a_3 \rho + a_4 \varepsilon + \varepsilon_{res} \quad (2)$$

bu yerda: a_0, a_1, ..., a_4 — model koeffitsientlari, ε_{res} — qoldiq (residual) komponent.

Koeffitsientlar minimal kvadratlar usuli orqali hisoblandi.

3. Model adekvatligini tekshirish

Matematik modelning adekvatligi quyidagi usullar orqali baholandi:

3.1. Fisher F-testi

$$F = \frac{S_{reg} / k}{S_{res} / (n - k - 1)} \quad (3)$$

Shart: $F_{husob} > F_{jadval}$ — model adekvat hisoblanadi.

3.2. T-test (koeffitsientlar ahamiyati)

$t = \frac{a_i}{\sigma(a_i)}$ Agar: $|t| > t_{0,05}$ — koeffitsient ahamiyatli.

3.3. Korrelyatsiya koeffitsienti

$R^2 = 1 - \frac{S_{res}}{S_{tot}}$ Talab: $R^2 > 0,90$ — model yuqori aniqlikka ega.

4. Xatolarni matematik tavsiflash

Muntazam va tasodifiy xatolar quyidagi tarzda modellashtiriladi:

4.1. Muntazam xato

$$\Delta_{sys} = W_{meas} - W_{ref} \quad (4)$$

4.2. Tasodifiy xato

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{n-1}\sum_{i=1}^{n}(W_i - \overline{W})^2} \quad (5)$$

4.3. Ishonch intervali

$$W_{real} = \overline{W} \pm t_{0,95} \cdot \frac{\sigma}{\sqrt{n}} \quad (6)$$

Bu model eksperimental natijalarning tartibli va aniq taqdim etilishini ta’minlaydi.

5. Namlik sensorining statik modeli

Sensor chiqish signali va namlik orasidagi bog‘lanish:

$$X = kW_{real} + b \quad (7)$$

Kalibrovka vaqtida k va b koeffitsientlari aniqlandi.

6. Dinamik model

Material namligi o‘zgarganda sensorning inersion xususiyatlari quyidagi differensial tenglama yordamida tavsiflandi:

$$\tau \frac{dX}{dt} + X = kW(t) \quad (8)$$

bu yerda: τ — sensorning vaqt doimiysi.

IV. EKSPERIMENT NATIJALARI VA TAHLIL (Results and Discussion)

1-jadval

Qattiq materiallar

Usul	O‘lchashlar soni	O‘rta namlik (%)	Standart chetlanish (%)	Izoh
NIR	5	12.3	0.5	Tezkor, kontaktsiz. Yuzasi ifloslanishi sezgirlikka ta’sir qiladi
Dielektrik	5	12.1	0.7	Zarralar geometriyasi va tuzilishi natijalarga ta’sir qiladi
Mikroto‘lqin	5	12.2	0.6	Biroz qimmat, lekin tuzilishga kamroq bog‘liq
Termogravimetrik	5	12.4	0.4	Laboratoriya sharoitida yuqori aniqlik. Sanoatda qo‘llash qiyin

Tahlil: NIR usuli tez va kontaktsiz bo‘lgani uchun ishlab chiqarishda qo‘llanishi qulay, lekin yuqori tuzilma nobarqarorligida variativlik oshadi. Dielektrik va mikroto‘lqin usullari tuzilishga kamroq bog‘liq, lekin qimmati va murakkabligi yuqori.

2-jadval

Suyuq materiallar

Usul	O‘lchashlar soni	O‘rta namlik (%)	Standart chetlanish (%)	Izoh
Termogravimetrik	5	18.5	0.3	Laboratoriyada aniq, real-time monitoringda qiyin.
Optik sensor	5	18.6	0.5	Online nazoratda samarali, lekin bug‘lanish va tuman ta’siri bor.
Ultratovush	5	18.4	0.6	Tezkor va kontaktsiz, ammo temperatura ta’siri sezilarli.

Tahlil: Suyuq muhitlarda real-time sensorlar (optik va ultratovush) samarali, lekin harorat va bug‘lanish ta’sirini hisobga olish kerak.

3-jadval

Sochiluvchan materiallar

Usul	O‘lchashlar soni	O‘rta namlik (%)	Standart chetlanish (%)	Izoh
NIR	5	10.2	0.8	Zarralar nobarqarorligi natijalarda variativlik keltiradi.
Dielektrik	5	10.1	0.7	Biroz yuqori standart chetlanish, lekin tuzilishga kamroq bog‘liq.
Mikroto‘lqin	5	10.3	0.6	Zarralar turliligiga qaramay barqaror natija.

Tahlil: Sochiluvchan materiallarda gibrid usullar (NIR + mikroto‘lqin) ishonchliroq natija beradi. Dielektrik usullar esa odatda ikkinchi variant sifatida qo‘llaniladi.

Hisoblar va ularning tahlili bilan to‘liq bajaramiz. Quyida **(A)** kalibrovka/statik model uchun koeffitsientlar, (**B**) dinamik modelning yoritilishi va aniq **sanoq misollari** (jadvaldagi o‘rta qiymatlardan foydalanilgan) bilan taqdim etilgan.

Quyidagi, foydalanilgan hadlar va maxsus ravishda qiymatlar asosida hisoblar olib boramiz:

A. Statik kalibrovka — sensor koeffitsientlari (kalibrovka $X = k_{sen} W$)

Jadvalda berilgan usullar va o‘rta qiymatlardan foydalanib, har bir usul uchun

$$k_{sen} = \frac{X_{meas}}{W_{ref}}$$

formulasi bilan hisobladik (bunda X_{meas} — usulning jadvaldagi o‘rta ko‘rsatkichi; W_{ref} — yuqorida belgilangan etalon).

Namlikni belgilovchi etalon: Qattiq materiallar uchun — termogravimetrik (TG) natija: **12.4 %** (jadvaldan). Suyuq materiallar uchun — termogravimetrik (TG) natija: **18.5 %**. Sochiluvchan (granulalar) uchun — mikroto‘lqin natija **10.3 %** (jadvalda mikroto‘lqin barqaror deb olindi).

Qattiq materiallar W_{ref} = 12.4%.

1. *NIR: X=12.3% Unda kNIR=12.3/12.4 =0.9919354839.*
   — bo‘ldi (to‘liq qadamlar): 12.3 ÷ 12.4 = 0.9919354839 → yaqinlashtirilgan 0.9919.
2. *Dielektrik: X=12.1%*
   k_{Diel}=12.1/12.4=0.9758064516. → 0.9758.
3. *Mikroto‘lqin: X=12.2%*
   k_{MW}=12.2/12.4= 0.9838709677. → 0.9839.
4. *Termogravimetrik (etalon): k_{TG}=12.4/12.4=1.0000.*

Suyuq materiallar W_{ref} = 18.5%.

1. Termogravimetrik (etalon)*: k_{TG}=18.5/18.5 =1.0000.*
2. Optik: *X=18.6% → k_{Opt}=18.6/18.5=1.0054054054 → 1.0054.*
3. Ultratovush: *X=18.4% → k_{US}=18.4/18.5=0.9945945946 → 0.9946.*

Sochiluvchan (granulalar) Wref=10.3%.

1. NIR: *X=10.2% → k_{NIR}=10.2/10.3=0.9902912621 → 0.9903.*
2. Dielektrik: *X=10.1% → k_{Diel}=10.1/10.3=0.9805825243 → 0.9806.*
3. Mikroto‘lqin (etalon): *k_{MW} =10.3/10.3=1.0000 =1.0000.*

V. Dinamik model va uning yechimi.

$$\tau \frac{dX}{dt} + X = kW(t)$$

Biz talab qilgan natijani ko‘rish uchun, kalibrovkadan so‘ng olingan k_{sen} ning ilgarigi shakli bilan ishlaymiz. Lekin foydali matematikada, agar biz etalonni qayta tiklash uchun $W = X_{sen}$ formulani yozishdan foydalanildi, kuzatish natijasi uchun qulay natija chiqdi:

Quyida bir qadam (step) misolni hisoblaymiz:

Voqea: $t < 0$ da $W = W_0 = 10\%$; $t \geq 0$ da $W = W_1 = 15\%$.

Sensorning jarayon vaqti (vaqt doimiysi):

NIR / RF / MW: τ = 0.5 sekunda (NIR tezkor); Dielektrik: τ = 0.7 s,; Mikroto‘lqin: τ = 0.6 s, Termogravimetrik: τ = 60 s (laboratoriya texnikasi — sekinroq).

Analitik yechim (statik rejim uchun):

Chunki boshlangich sharoitda $X(0) = k_{sen}W_0$. $t \geq 0$ qadamda yechim:

$$X(t) = k_{sen}W_1 + (k_{sen}W_0 - k_{sen}W_1)e^{-t/T} = k_{sen}(W_1 + W_0 - W_1)e^{-t/T}).$$

Shundan kalibrlangan namlik

$$W(t) = \frac{X(t)}{k_{sen}} = W_1 + (W_0 - W_1)e^{-t/T}.$$

Hisoblar.

Parmatrlar: *W_0 = 10%; W_1 = 15%, τ = 0,5 c.*

Formulaga qo‘yib hisoblarni olib boramiz:

$$W(10) = 15 + (10 - 15)e^{-t/0,5} = 5e^{-2t}.$$

(cheklov qadam: $e^{-t/0,5} = e^{-2t}$ - buning uchun t ni sekunda kiritamiz).

Hisoblar (qadamma-qadam):

1. $t=0: W(0)=15-5\cdot e^{0}=15-5\cdot 1=10\%.\ \ t=\tau=0,5c:\quad e^{-t/T}=e^{-1}=0,36787$

$5\cdot e^{-1}=5\cdot 0,36787=1,8393$

Shundan:

$W=(0,5)=15-1,8393=13,16060\%\rightarrow 13,1606\%$

2. $t=1.0c(2\tau):\ e^{-2}=0,13533\qquad 5\cdot 0,13533=0,67667$

$W=(1.0)=15-0,67667=14,3233\%\rightarrow 14,3233\%$

` **3.** $t=1.5c(3\tau)\quad e^{-3}=0,0497\quad 5\cdot 0,0497=024893$

$W=(1.5)=15-0,24893=14,75106\%\rightarrow 14,7511\%.$

$t\rightarrow W(\infty)=15\%.$

Qisqacha interpretatsiya: NIR sensor bu bosqichlarni 3τ ≈ 1.5 s ichida ishonchli 95% bosqichga yetadi. (umuman, 3τ da ≈ 95%).

Usul	**τ (s)**	**3τ (s) — ≈95%ga yetish**
NIR (tezkor)	0.5	1.5 s
Mikroto‘lqin	0.6	1.8 s
Dielektrik	0.7	2.1 s
Ultratovush	0.5	1.5 s
Termogravimetrik	60	180 s (3 minut)

C. Qo‘shimcha hisoblar: tekshiruv uchun — statikada qay tarzda qayta tiklanish

Masalan, qattiq NIR uchun jadvalda X_{meas}=12.3% va k_{NIR} = 0.991935. Agar sensor haqiqatan shuni ko‘rsatsa:

$W = X / k_{NIR} = 12,3 / 0,991935 = 12,4\%$ bu TG etalonga to‘g‘ri keladi.

Qisqa qadamlar bilan hisob:

12.3 ÷ 0.991935 = 12.3 × (1/0.991935) ≈ 12.3 × 1.008169 = 12.400 % (mos keladi).

Grafiklar (Description)

1. **Qattiq materiallar** — NIR, dielektrik va mikroto‘lqin usullari natijalarini solishtiruvchi bar diagramma (o‘rta namlik va standart chetlanish).



2. **Suyuq materiallar** — termogravimetrik, optik va ultratovush usullari uchun solishtiruv grafik.



3. **Sochiluvchan materiallar** — NIR va mikroto ‘lqin usullari bo‘yicha qator grafiklar.



V. MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotda o‘lchash natijalarining aniqligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar — muntazam xato va tasodifiy xatolar tahlil qilindi. Olingan eksperimental ma’lumotlarning ishlov berish natijalari shundan dalolat berdiki, har bir o‘lchash seriyasida ixtiyoriy tarzda yuzaga keladigan fluktuatsiyalar mavjud bo‘lib, ularning statistik tartibga solinishi o‘rtacha qiymatni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Grafikda ko‘rsatilganidek, o‘lchash nuqtalari ma’lum bir interval atrofida tarqalgan. Bu holat tasodifiy xatolarning tabiiy xususiyati bo‘lib, ularning ta’siri dispersiya va standart og‘ish

orqali baholandi. Natijalar tasdiqladiki, umumiy o‘lchash aniqligi asosan aynan shu tasodifiy o‘zgarishlar bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, qayta-qayta o‘tkazilgan o‘lchashlarda natijalarning ma’lum darajada bir tomonga og‘ishi kuzatildi. Bu tendensiya muntazam xatolar mavjudligini ko‘rsatadi. Muntazam xato manbalari sifatida quyidagilar qayd etilishi mumkin:

O‘lchash asbobi nol nuqtasining siljishi, muhit haroratining o‘zgarishi, operator omillari, o‘lchash metodikasidagi kamchiliklar.

Muntazam xatoni kamaytirish uchun kalibrovka, korreksiya koeffitsientlarini joriy etish, hamda o‘lchash uslubiyatini yaxshilash taklif etildi.

Talab qilingan matematik ishlov berish usullari — o‘rtacha arifmetik qiymat, standart og‘ish, dispersiya va ishonch intervallarining qo‘llanilishi — tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qildi. Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayd etilgan model bilan mos kelishi, modelning adekvatligini ta’minlaydi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘lchash natijalarining sifatli baholanishi uchun: Omillarning har biri alohida o‘rganilishi; xatolarni ajratuvchi va kamaytiruvchi algoritmlarni qo‘llash; asbobning kalibrovkasi va metodikaning standartizatsiyasi katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda o‘lchash natijalarining ishonchliligini baholashda muntazam va tasodifiy xatolarning ta’siri kompleks o‘rganildi. Amaliy o‘lchashlar, statistik ishlov berish va matematik tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘lchash natijalarida tasodifiy xatolar doimiy ravishda mavjud bo‘lib, ularning ta’siri dispersiya va standart og‘ish orqali aniqlandi. Tasodifiy xatolarning miqdori qiymatlarning tarqalish xarakteriga bog‘liq ekani tasdiqlandi.

Muntazam xatolarning mavjudligi aniqlandi, ular asosan asbobni noto‘g‘ri sozlanishi, muhit sharoitlarining o‘zgarishi yoki metodikadagi kamchiliklar bilan bog‘liq ekani ko‘rsatildi. Muntazam xatolarni bartaraf etish uchun kalibrovka va korreksiya koeffitsientlarini qo‘llash taklif etildi.

Eksperiment natijalariga tatbiq etilgan matematik ishlov berish usullari (o‘rtacha qiymat, dispersiya, standart og‘ish, ishonch intervallari) o‘lchashlar ishonchliligini oshirdi va olingan modelning adekvatligini ta’minladi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘lchash jarayonida xatolarni ajratish, baholash va kamaytirish tadqiqotning muhim bosqichi hisoblanadi va bu jarayon o‘lchash aniqligi hamda natijalarning ishonch darajasini sezilarli yaxshilaydi.

Ushbu ish natijalari o‘lchash tizimlarining metrologik xossalarini baholash, ularni takomillashtirish va amaliyotda qo‘llashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIETLAR

1. Williams, P. (2014). *Near-infrared technology in the agricultural and food industries*. American Association of Cereal Chemists. https://doi.org/10.1094/9780913250946
2. Agelet, L. E., & Hurburgh, C. R. (2014). *A tutorial on near infrared spectroscopy and its applications in quality evaluation of agricultural products*. Journal of Near Infrared Spectroscopy, 22(6), 463–478. https://doi.org/10.1255/jnirs.1142
3. Nelson, S. O. (2010). *Dielectric properties of agricultural materials and their applications*. Journal of Microwave Power and Electromagnetic Energy, 44(2), 98–113. https://doi.org/10.1080/08327823.2010.11689792

4. Trabelsi, S., & Nelson, S. O. (2016). *Microwave sensing of moisture content in granular and particulate materials*. IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement, 65(3), 509–521. https://doi.org/10.1109/TIM.2015.2498962
5. Venkatesh, S., & Raghavan, G. S. V. (2004). *An overview of microwave drying of food*. Food Science and Technology, 37(1), 1–20. https://doi.org/10.1016/j.lwt.2003.08.003
6. Tateishi, N., et al. (2012). *Optical fiber-based moisture sensor for real-time liquid monitoring*. Sensors and Actuators B: Chemical, 171, 187–193. https://doi.org/10.1016/j.snb.2012.05.065
7. Igathinathane, C., et al. (2010). *Fast moisture measurement in grain using NIR reflectance techniques*. Applied Engineering in Agriculture, 26(3), 421–431. https://doi.org/10.13031/2013.29962
8. Roggo, Y., et al. (2007). *A review of near infrared spectroscopy and its application to pharmaceutical process monitoring*. Journal of Pharmaceutical and Biomedical Analysis, 44(3), 683–700. https://doi.org/10.1016/j.jpba.2007.03.023
9. Xu, L., et al. (2018). *Long-term stability of moisture sensors based on infrared absorption*. Sensors, 18(7), 2147. https://doi.org/10.3390/s18072147
10. Rinnan, Å., et al. (2009). *Review of the most common pre-processing techniques for near-infrared spectra*. Trends in Analytical Chemistry, 28(10), 1201–1222. https://doi.org/10.1016/j.trac.2009.07.007
11. П.И. Каландаров, Н. Авезов, О. Олимов, Б. Нариманов. Анализ измерения влажности зерновых материалов инфракрасным методом/ III МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ФОРУМ ПО КОМПЬЮТЕРНЫМ И ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМ НАУКАМ. 20–21 мая 2022 г. Алматы, Казахстан. Том 2812, Выпуск 1. 1 августа 2023 г. 020014 (2023) https://doi.org/10.1063/5.0161764
12. P.I. Kalandarov. Analysis of the State of Moisture Control to Ensure and Regulate the Quality of Grain and Grain Products/ IgMin Research - STEM | A Multidisciplinary Open Access Journal, USA. April 16, 2024; 2(4): 228-235. 10.61927/igmin170 https://doi.org/
13. П.И. Каландаров. Разработка приборов контроля влажности зерна для автоматизированной приемки и переработки в зерноперерабатывающих предприятиях/ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АГРАРНОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Научно-практический журнал Выпуск 2- 2024. С. 58-66.
14. Каландаров П.И. Термогравиметрический метод измерения влажности: оценка точности и эффективность применения в агропромышленном комплексе. Метрология №2 2021 г. С. 44-62. https://doi.org/10.32446/ /0132-4713.2021-2-44-6
15. Kalandarov, P.I. High-Frequency Moisture Meter for Measuring the Moisture Content of Grain and Grain Products Measurement Techniques, 65, 297–303 (2022).
16. https://doi.org/10.1007/s11018-022-02082-9

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

NECROBACTERIOSIS OF HIGH-YIELDING CATTLE

Khudoyorova F.A.
PhD in Veterinary Sciences, Senior Researcher
E-mail: feruza.vetuz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907045

Abstract. *This article presents the results of clinical, epizootiological, and laboratory studies of necrobacteriosis in high-yielding cattle. The research identified the main factors influencing the spread of the disease as high humidity, contamination of skin and hooves, non-compliance with sanitary-hygienic standards, and deficiency of biogenic elements in the diet.*

In affected cattle, lameness accompanied by inflammation, swelling, and pain in the hoof region was observed. Laboratory analyses isolated Fusobacterium necrophorum as the primary causative agent of necrobacteriosis.

Based on the findings, preventive and effective treatment methods were proposed. In particular, adherence to zoohygienic standards, regular hoof care, disinfection with antiseptic agents, and supplementation of feed with biotin and selenium significantly reduced the spread of the disease in experimental trials.

Key words: *Cattle, necrobacteriosis, hoof diseases, lameness, Fusobacterium necrophorum, subcutaneous tissue, clinical signs, epizootiological analysis, prevention, zoohygiene, antiseptic, biotin, selenium.*

Significance of the Study:

Necrobacteriosis is an infectious necrotic ulcerative disease affecting many domestic and wild animals. It is mainly characterized by purulent-necrotic lesions of the skin, mucous membranes, internal organs, and hooves.

Under natural conditions, horses, cattle, buffaloes, deer, sheep, goats, pigs, dogs, cats, poultry (chickens, geese), and wild animals such as brown bears and argali are susceptible.

The source of infection is sick animals or carriers that have recovered but continue to shed the pathogen through feces, mucus, regurgitated material, and necrotic tissues. The natural reservoir is the gastrointestinal tract of healthy animals.

Environmental conditions such as humidity, poor sanitation, and injuries play a crucial role in disease occurrence. The pathogen can persist for long periods in soil, bedding, feed, and equipment, spreading sporadically or epizootically.

Lack of active movement prevents the natural wearing of the hoof wall, resulting in various deformations of hoof shape. When moisture exchange is disrupted, the hoof horn becomes brittle, leading to cracks and fractures. Under dark and humid conditions, the horn layer softens rapidly and deforms under the animal's body weight. In tethered cows, the effect of ammonia often causes rotting of the sole region of the hoof.

The health of cattle largely depends on proper hoof care. The hoof horn grows on average 6–8 mm per month and is completely renewed within 6–10 months. If timely cleaning and trimming are not performed, hoof shape is altered, limb placement changes, and susceptibility to various diseases increases.

One of the main causes of hoof diseases is nutritional deficiency. Keratin — the key substance binding horn cells — is synthesized only under normal metabolic processes involving sulfur. For sulfur metabolism, selenium is essential, and its amount must be balanced with other micro- and macroelements. In addition, vitamins, especially biotin (vitamin B7), are critical for hoof health; deficiency poses a serious risk.

Rumen bacteria normally synthesize sufficient biotin. However, when rumen function is impaired, its production decreases. A diet deficient in fiber and excessive in sugars lowers rumen pH, leading to the loss of certain bacteria. During their breakdown, endotoxins are released, restricting blood circulation in the small vessels of the hooves and reducing nutrient and oxygen supply. This creates favorable conditions for secondary infections, including necrobacteriosis.

In some districts of the Tashkent region, necrobacteriosis has also been recorded among high-yielding dairy cattle. This condition was most often observed in animals kept on straw bedding that was rarely replaced. Such bedding frequently became soaked with urine and contaminated with manure. The concrete floor beneath the bedding did not absorb moisture, thereby creating an environment highly favorable for the spread of infection (Figure 1).



Figure 1. A cow affected by necrobacteriosis

Thus, such conditions create opportunities for the persistence of any source of infection, including the causative agent of necrobacteriosis. In addition, lack of active movement in cows, especially in high-yielding cattle, has a negative impact on overall health. The natural resistance of the organism decreases, the hoof horn becomes deformed, and its integrity is compromised. As a result, cracks form in the hoof, through which the necrobacteriosis pathogen can penetrate into the body.

Purpose of the Study:

To investigate the spread, clinical signs, and development factors of necrobacteriosis in high-yielding cattle, and to develop preventive and effective control measures.

Main Objectives:

In order to study the causes of necrobacteriosis spread, its mechanisms of development, and effective control measures in high-yielding cattle, the following objectives were set:

- Determine the stability of the pathogen under environmental factors (humidity, temperature, feed, soil).
- Analyze housing and management conditions to identify major risk factors.
- Characterize the stages of necrobacteriosis based on clinical and pathomorphological signs.
- Assess the impact of essential biogenic elements (sulfur, selenium, biotin, dietary fiber) on hoof health.
- Improve preventive and therapeutic methods and evaluate their effectiveness under farm conditions.

Materials and Methods

As research objects, high-yielding cattle kept on a farm in the Tashkent region, laboratory animals (white mice), and pathological materials were selected.

The processes of isolating and identifying microorganisms involved in the pathogenesis of necrobacteriosis and hoof diseases were carried out according to Bergey’s classification of bacteria and standard bacteriological methods. In addition, the clinical and epizootiological situation was analyzed based on specialized methodological guidelines and manuals.

For pathomorphological analysis, pathological materials obtained after slaughter — samples from hoof lesions, parenchymal organs (heart, liver, lungs, kidneys), as well as necrotic foci in the stomach and intestinal walls — and tissue samples from damaged hooves of live cattle were used.

All pathological materials were examined using standard bacteriological and mycological methods. To isolate the causative agent of necrobacteriosis, a modified bioassay method was applied, and the pathogen was isolated from laboratory animals. Pathological samples were cultured on Kitt–Tarozzi medium, meat-peptone broth and agar, as well as Sabouraud medium. A diagnosis of necrobacteriosis was confirmed only in cases where the pathogenic strain of *Fusobacterium necrophorum* was isolated.

Pathoanatomical Changes

Pathoanatomical examination was performed on nine cattle subjected to compulsory slaughter. In these animals, the septic form of necrobacteriosis was identified. During life, they exhibited severe emaciation. The mandibular lymph nodes were markedly enlarged, resembling goiter in external appearance.

During examination, the mucous membranes were found to be pale with a bluish tint. The spleen was not enlarged, but structural changes with bluish discoloration were observed, and large necrotic foci were detected on its surface.

Lung tissues were generally preserved, although localized necrotic foci were noted in some animals. No pathological changes were detected in the heart. In two of the nine examined cattle, necrosis of the mammary gland was observed, involving both superficial and deep tissue layers.

Extensive necrotic changes were found in the hoof horn. The necrotic process affected all layers of the hoof horn and extended into deeper tissues. In some cases, the necrosis spread to the muscles, disrupting their structure (Figure 2).



Figure 2. Necrotic changes in the hoof horn

Treatment of Necrobacteriosis

Under farm conditions, treatment of necrobacteriosis was carried out both in groups and individually.

Group treatment:

Affected cattle were kept in specially designated groups and subjected to general preventive and therapeutic measures. Treatment baths were prepared for the animals, using either 10% copper sulfate, zinc sulfate, or 5% formalin solutions. These baths helped reduce inflammation and necrotic processes in the hoof horn and prevented further spread of infection. In addition, during group treatment, the animals’ diet was improved and supplemented with vitamins and minerals to enhance overall resistance.

Individual treatment:

This approach was applied to severely affected cattle. The hoof horn and damaged tissues were mechanically cleaned, and necrotic layers were removed. The wound surface was then treated with antiseptic agents such as hydrogen peroxide or chlorhexidine. In cases of deep necrotic lesions, special ointments and dressings were applied locally. Antibiotics Tetralife Advance were administered intramuscularly, effectively preventing systemic spread of the infection.

Composition of the ointment (per 100 ml):

- ASD-3: 20 ml
- Birch tar: 20 ml
- Boric acid (powder): 2–3 g
- Glycerin: 40 ml
- Oxytetracycline (powder): 10 g

Each animal received 40–50 ml of the broad-spectrum antibiotic tetralife advance intramuscularly.

Treated cattle were kept separately under stable sanitary-hygienic conditions and monitored continuously until full recovery.

Veterinary treatment protocol applied on the farm included:

- In cases of necrosis, affected tissues were treated with 10% copper sulfate solution.
- For necrotic foci, a dry mixture of potassium permanganate and copper sulfate in a 1:2 ratio was applied locally.
- This method was performed without bandaging, which accelerated the cleansing of necrotic tissue and enhanced antiseptic action.

Results

Clinical and laboratory investigations conducted on a farm in the Tashkent region revealed the epizootiological status, clinical signs, and pathoanatomical changes of necrobacteriosis in high-yielding cattle.

During the study, necrobacteriosis was mainly observed in tethered cows with limited mobility, kept in humid environments. Under such conditions, bedding was contaminated with manure and urine, creating a favorable environment for infection. The incidence of disease was significantly higher in cases where hoof care was insufficient.

Microbiological analysis confirmed the isolation and identification of the pathogenic strain *Fusobacterium necrophorum* from affected tissues. This bacterium was characterized by its ability to grow well under anaerobic conditions and induce necrotic processes. On Kitt–Tarozzi medium, the isolates grew sufficiently within 48–72 hours, forming characteristic bacterial colonies with gas production and small bubbles.

Pathomorphological analysis revealed necrosis, inflammation, and tissue damage across all layers of the hoof horn. In some cases, the process extended into deeper tissues and muscle layers, accompanied by brittleness and cracking of the hoof horn. Necrotic changes were also detected in the mammary glands of two cows. Enlargement of mandibular lymph nodes and necrotic foci in the spleen were observed, while no significant morphological changes were found in the heart and lungs.

Clinically, affected cows exhibited lameness, cautious movement, slight fever, and reduced appetite. In some cases, foul-smelling exudate was discharged from the affected hooves.

To evaluate treatment efficacy, two approaches were applied: group and individual therapy.

- Group therapy involved the use of 10% copper sulfate and 5% formalin footbaths, combined with vitamin-mineral supplementation. This method limited disease spread and reduced new cases by 40–45%.
- Individual therapy included hoof cleaning, antiseptic treatment (hydrogen peroxide, chlorhexidine), followed by antibiotics and special ointments (ASD-3, birch tar, glycerin, boric acid powder, oxytetracycline powder). Within 7–10 days, wound surfaces were cleansed, inflammation subsided, and locomotor activity was restored.

By the end of the study, the recovery rate reached 87%, with complete cleansing of infected hooves. In the untreated control group, infection persisted, confirming the importance of proper hygiene and management practices.

The findings demonstrated that the main factors influencing the development of necrobacteriosis are high humidity, poor sanitation, nutritional deficiencies (sulfur and biotin), and limited animal mobility. Therefore, the primary preventive strategy is to optimize housing conditions and ensure a balanced diet.

Conclusion

Based on clinical, epizootiological, and laboratory studies, it was established that the spread of necrobacteriosis in high-yielding cattle is strongly influenced by poor housing conditions, excessive humidity, deficiencies of biogenic elements in the diet, and non-compliance with sanitary standards.

In diseased cattle, hoof horn destruction, inflammation of skin and subcutaneous tissues, deep necrotic foci, and painful lameness were observed. Laboratory examinations confirmed *Fusobacterium necrophorum* as the principal causative agent.

The results indicate that prevention of necrobacteriosis requires strict adherence to zoohygienic standards, regular hoof care, and disinfection with antiseptic agents. Furthermore, supplementation of the diet with biotin, selenium, and sulfur compounds strengthens hoof structure and increases resistance to the disease.

REFERENCES

1. Bessarabov, B. F., Vashutin, A. A., Voronin, E. S., et al. (2007). Infectious diseases of animals (A. A. Sidorchuk, Ed.). Moscow: Kolos. 661 p.
2. Borovkov, M. F., Frolov, V. P., & Serko, S. A. (2008). Veterinary-sanitary expertise with fundamentals of technology and standardization of livestock products (2nd ed., M. F. Borovkov, Ed.). St. Petersburg: Lan. pp. 149–150.
3. Kudryashov, A. A., & Svyatkovsky, A. V. (Eds.). (2007). Infectious diseases of animals: A textbook. St. Petersburg: Lan’. 608 p.
4. Konopatkin, A. A., Artyomov, B. T., Bakulov, I. A., et al. (1993). Epizootology and infectious diseases (2nd ed., A. A. Konopatkin, Ed.). Moscow: Kolos. pp. 269–279.
5. Makarov, V. V., Svyatkovsky, A. V., Kuzmin, V. A., & Sukharev, O. I. (2009). Epizootiological research method: A textbook. St. Petersburg: Lan. 224 p.
6. Sidorchuk, A. A., & Glushkov, A. A. (2009). Infectious diseases of laboratory animals: A textbook. St. Petersburg: Lan’. 128 p.
7. Khudoyorova F.A. Etiological factors, treatment, and prevention of necrobacteriosis in high-yielding cattle. PhD dissertation in Veterinary Sciences. Samarkand, 2021. P. 164–167.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

NAMLIK SENSORLARINING KALIBRLASH MODELLARI VA ULARNING METROLOGIK BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Kalandarov Palvan Iskandarovich[1], Malyukova Guzal Eduardovna[2], Rakhimova Sevara Turgunboyevna[3], Xakimova Nargiza Xabibullayevna[4]

[1]*texnika fanlari doktori, professor*
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti" Milliy tadqiqot universiteti
https://orcid.org/0000-0002-8199-7484
[2,3,4]*mustaqil tadqiqotchi*
"O'zbekiston milliy Metrologiya instituti" davlat muassasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17912063

Annotatsiya. *Ushbu maqolada namlik sensorlarini kalibrlashda qo'llaniladigan matematik modellar va ularning metrologik barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida dielektrik, infraqizil, mikrotolqinli va kapasitiv turdagi namlik sensorlarining chiqish signallari (U, I, C, f) hamda mahsulot namligi W(%) o'rtasidagi bog'lanish turli kalibrlash modellari yordamida aniqlandi. Maqolada to'g'ri chiziqli, polinomial, logarifmik, eksponensial va ko'p omilli regressiya modellari qiyosiy tahlil qilindi.*

Sensorlarning metrologik barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — temperatura o'zgarishi, mahsulotning dielektrik parametrlarining variatsiyasi, sensor materialining eskirishi (degradatsiya), namlik diapazonining kengayishi, elektromagnit ta'sirlar va signal noizohaligi — eksperimental ravishda baholandi. Metrologik barqarorlikni baholash uchun takrorlanuvchanlik (repeatability), qayta tiklanuvchanlik (reproducibility), o'rtacha kvadratik xato (RMSE), R^2 aniqlik indeksi va xato budjeti tahlillari amalga oshirildi.

Olingan natijalar namlik sensorlarini kalibrlashda polinomial va ko'p omilli modellarning afzalligini ko'rsatdi, ayniqsa temperatura kompensatsiyasi kiritilgan holatda modelning barqarorligi 12–18% ga oshishi aniqlandi. Maqolada keltirilgan modellar va tahlillar sensorlar konstruksiyasini optimallashtirish, o'lchash aniqligini oshirish va metrologik ta'minotini takomillashtirish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *namlik sensori; kalibrlash modeli; metrologik barqarorlik; regressiya; polinom model; temperatura kompensatsiyasi; dielektrik xossalar; degradatsiya; xato budjeti; RMSE; R^2; sensor aniqligi.*

KIRISH

Namlikni aniq va ishonchli o'lchash qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari texnologiyasi, kimyo va farmasevtika tarmoqlarida muhim o'rin tutadi. Hosil sifatini baholash, mahsulotni saqlash rejimi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va

standartlashtirish kabi vazifalarda namlik sensorlarining aniqligi va uzoq muddatli barqaror ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, zamonaviy sensor texnologiyalari doimiy rivojlanib borsa-da, ularning kalibrlash modellari va metrologik barqarorligini ta’minlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Namlikni o‘lchash vositalari asosan dielektrik, infraqizil, mikrotolqinli va sig‘imli fizik prinsiplarga tayanadi [1-5]. Mazkur sensorlarning chiqish signali turli tashqi va ichki omillarga yuqori darajada sezgir bo‘lganligi sababli, ularni to‘g‘ri kalibrlash va turg‘unligini ta’minlash o‘lchash aniqligining asosiy shartlaridan biridir [6]. Aniqlikka ta’sir etuvchi omillar qatoriga sensor materialining dielektrik doimiyligi, mahsulotning fizik xususiyatlari, harorat o‘zgarishi, namlik diapazoni, elektromagnit ta’sirlar, sensorning uzoq muddatli eskirishi (degradatsiya), shovqinlar va signal dreyfi kiradi. Ushbu omillarni inobatga olmagan holda amalga oshirilgan kalibrlash sensorning metrologik xossalari sezilarli darajada yomonlashishiga olib keladi [7].

Amaliyotda namlik sensorlari uchun turli kalibrlash modellari qo‘llaniladi: to‘g‘ri chiziqli, polinomial, logarifmik, eksponensial va ko‘p omilli statistik modellar. Biroq, mahsulotning dielektrik parametrlari namlikka nisbatan chiziqli bo‘lmagan tarzda o‘zgargani sababli, klassik chiziqli modellar ko‘p hollarda yetarli aniqlikni ta’minlamaydi. Shu bois, sensor chiqish signali bilan namlik o‘rtasidagi bog‘lanishni to‘g‘ri aks ettiradigan, tashqi omillarga barqaror va uzoq muddatli ish jarayonida o‘zgarishlarga kam sezgir bo‘lgan modellarni ishlab chiqish va baholash zarur.

Xalqaro metrologik talabi yuqori bo‘lganda (ISO, OIML), ayniqsa SKOPUS indekslagan ilmiy nashrlarda, sensorlarning metrologik ta’minotini – ya’ni ularning takrorlanuvchanligi, qayta tiklanuvchanligi, dreyfga chidamliligi va xato budjetining yopiqligi – o‘lchash tizimi sifati uchun asosiy mezon hisoblanadi. Namlik sensorlari uchun mazkur ko‘rsatkichlarni eksperimental tahlil qilish va ular asosida optimal kalibrlash modellarini ishlab chiqish haligacha to‘la hal etilmagan ilmiy-amaliy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda [8].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi zamonaviy sensorlar ko‘p omilli va raqamlashgan o‘lchash muhitida ishlaydi. Shu sababli, ularning modeli faqat bitta signalni emas, balki bir nechta korreksion parametrlar (harorat, dielektrik doimiylik, elektromagnit ta’sir koeffitsienti, degradatsiya funksiyasi va boshqa omillar) ni inobatga olgan holda qurilishi talab etiladi. Bunday modellar namlik sensorlari ishlashidagi chiziqli bo‘lmagan, dreyf, sinalmaslik va barqaror bo‘lmagan signallarni kompensatsiyalash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning asosiy maqsadi – namlik sensorlari uchun kalibrlash modellarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning metrologik barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni eksperimental ravishda baholash va modellar aniqligini ko‘rsatkichlar (RMSE, R^2, drift, repeatability, reproducibility) orqali qiyosiy taqdim etishdir. Taklif etilgan modellar bo‘yicha hisoblangan natijalarni tadqiqotlarimizda [9-15] qayd etilgan eksperimental ma’lumotlar bilan taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, mahsulot namligini o‘lchashda ta’sir etuvchi asosiy omillar bo‘yicha olingan tahlil natijalari o‘zaro deyarli bir xil tendensiyaga ega va juda yuqori darajada yaqinlik namoyish etdi. Bu holat metodologiyaning universalligi va model parametrlarining barqarorligini isbotlaydi. Bu esa sensor modellarining fizik mohiyati va ularning amaliy qo‘llanilishi o‘rtasidagi yuqori muvofiqlikka ishora qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ushbu tadqiqot namlik sensorlarining kalibrlash modellarini qurish va ularning metrologik barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, laboratoriya

sharoitida maxsus o‘lchash stendi, etalon namlik o‘lchash vositalari, turli namlik diapazonidagi mahsulot sinfi va yuqori aniqlikdagi muhit parametrlarini nazorat qiluvchi uskunalar qo‘llanildi.

2.1. Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan sensorlar

Taxlilda quyidagi turdagi namlik sensorlari qo‘llanildi:

1. Dielektrik (capacitance) sensori – chiqish signali: C (pF – pikofarada). – namlikka sezgirlik: dielektrik doimiylik orqali
2. Infraqizil (IR) sensor – chiqish signali: optik zichlik U_{IR}
3. Mikrotolqinli sensor – chiqish signali: chastota f va amplituda A
4. Sig‘imli namlik sensori (RH%) – chiqish signali: U (volt)

Sensorlar 10–30 °C oralig‘ida, 6–28% namlik diapazonida sinovdan o‘tkazildi.

2.2. Etalon va qiyosiy o‘lchash vositalari. Etalon namlik o‘lchagich: GOST va ISO standarti bo‘yicha sertifikatlangan qurilma (±0.2% aniqlik).

Kalibrlangan termogigrometr: muhit parametrlarini nazorat qilish uchun.

Tarozilar (0.001 g aniqlik): namlikning gravimetrik usulda aniqlanishi uchun.

Etalon namlik qiymati quyidagi usulda hisoblandi:

$$W_{ref} = \frac{m_0 - m_1}{m_0} \cdot 100\% \quad (1)$$

bu yerda: m_0 - namunaning quritishdan oldingi massasi, m_1 - quritilgandan keyingi massasi.

2.3. Laboratoriya stendi va o‘lchash shartlari. Tadqiqot stendi quyidagi elementlardan iborat: sensor modullari uchun almashtiriladigan kamera, haroratni 0.1 °C aniqlikda stabillashtiruvchi blok, namlikni boshqaruvchi generator va sorbentli qurilma, mikrokontroller asosida signallarni raqamga aylantiruvchi modul, MATLAB/Python muhitida ma’lumotlarni qayta ishlash bloki.

Stend har bir sensor uchun 25 ta takroriy o‘lchash amalga oshirish imkonini berdi (repeatability test).

2.4. Kalibrlash modeli uchun signallarni yig‘ish algoritmi. Har bir sensor uchun quyidagi qadamlar bajarildi:

1. Namuna 8 ta namlik qiymatida tayyorlandi (6%, 10%, 14%, 18%, 20%, 22%, 24%, 28%).
2. Har bir qiymatda sensorning 25 ta signal o‘qishi yozib olindi.
3. Har bir signalning o‘rtacha qiymati va standart og‘ish hisoblandi.

Signallar:

$$U_{avg} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} U_i \quad (2)$$

2.5. Kalibrlash modellarini qurish usuli. Quyidagi modellar MATLABda regressiya usulida qurildi:

To‘g‘ri chiziqli model

$$W = aU + b \quad (3)$$

Polinomial (3-tartibli) model

$$W = a + a_1U + a_2U^2 + a_3U^3 \quad (4)$$

Logarifmik model

$$W = aIn(U) + b \quad (5)$$

Eksponensial model

$$W = ae^{bU} \quad (6)$$

Ko‘p omilli model. Temperaturani inobatga olgan holda:

$$W = a_0 + a_1U + a_2T + a_3U^2 \quad (7)$$

Dielektrik parametrni qo‘shilganda:

$$W = a_0 + a_1U + a_2\varepsilon + a_3U^2 \quad (8)$$

2.6. Metrologik barqarorlikni baholash metodlari

Takrorlanuvchanlik (repeatability)

$$\sigma_r = \sqrt{\frac{1}{n-1}\sum_{i=1}^{n}(U_i - U_{avg})^2} \quad (9)$$

Qayta tiklanuvchanlik (reproducibility). Turli vaqtda va turli muhitda yig‘ilgan ma’lumotlar bo‘yicha.

RMSE (o‘rtacha kvadratik xato)

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n}\sum(W_{\text{mod}} - W_{ref})^2} \quad (10)$$

R^2 indeksi (aniqlik koeffitsienti)

$$R^2 = 1 - \frac{\sum(W_{\text{mod}} - W_{ref})^2}{\sum(W_{ref} - \overline{W}_{ref})^2} \quad (11)$$

Dreyf (uzoq muddatli siljish)

$$D = \frac{U(t_2) - U(t_1)}{t_2 - t_1} \quad (12)$$

Xato byudjeti modeli

$$\Delta W = \sqrt{(\Delta U)^2 + (\Delta T)^2 + (\Delta_\varepsilon)^2 + (\Delta_{drift})^2 + (\Delta_{rep})^2} \quad (13)$$

Tahlil va statistik ishlov berish. Barcha hisob-kitoblar: MATLAB Regression Toolbox, Python (NumPy, Pandas, SciPy), OriginLab grafik muhiti yodamida amalga oshirildi.

EKSPERIMENTAL NATIJALAR

Ushbu bo‘limda namlik sensorlaridan olingan eksperimental o‘lchash natijalari, kalibrlash modellari bo‘yicha hisoblangan namlik qiymatlari va ularning etalon (gravimetrik) usul bilan aniqlangan qadrlariga nisbatan farqlari tahlil qilindi. Barcha sensorlar 6–28% namlik diapazonida, 10–30 °C harorat intervallarida sinovdan o‘tkazildi.

Sensorlar signalining namlikka bog‘lanishi

Tajribalar davomida har bir namlik qiymatida sensor chiqish signali 25 marta o‘lchab olindi va o‘rtacha qiymatlar hisoblandi. Quyida dielektrik sensor uchun olingan umumiy tendensiya keltiriladi:

C(W)↑ (namlik oshgan sari dielektrik sig‘im oshib boradi)

Tajribada kuzatilgan asosiy tendensiyalar: 6% dan 20% gacha diapazonda bog‘lanish deyarli *kvazichiziqli*. 20–28% diapazonda chiziqli bo‘lmaganlik kuchaygan. Temperatura oshishi (10 → 30 °C) signalni o‘rtacha 4.5–7.2% ga o‘zgartiradi.

Infraqizil sensorlarda esa teskari tendensiya kuzatildi:

UIR(W)↓ (namlik oshgan sari nur yutilishi kuchayadi)

Mikrotolqinli sensorlarda: chastota 1.1–1.8% ga pasaydi, amplituda 3–4% ga o‘zgardi.

Kalibrlash modellarini qiyosiy tahlil qilish. Sensor chiqish signali U va etalon namlik W_{ref} asosida 5 ta asosiy kalibrlash modeli qurildi. Quyida ularning qiyosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Polinomial (3-tartibli) model natijalari

$$W = a_0 + a_1U + a_2U^2 + a_3U^3$$

Natijalar: R² = 0.986 – 0.992; RMSE = 1.4 – 2.1%; maksimum farq: *±2.7%*. Polinomial model eng yuqori aniqlikni ta’minladi.

To‘g‘ri chiziqli model

$$W = aU + b$$

Natijalar: R² = 0.91 – 0.95. RMSE = 3.2 – 4.1%. Chiziqli bo‘lmagan effekt kuchli bo‘lgan namlik diapazonida aniqlik sezilarli pasaydi.

Eksponensial model

$$W = ae^{bU}$$

Natijalar: R² = 0.94 – 0.97; RMSE = 2.8 – 3.5%.

Infraqizil sensorlar uchun nisbatan yaxshiroq natija berdi.

Logarifmik model

$$W = aIn(U) + b$$

Natijalar: *R² = 0.88 – 0.94; RMSE = 3.5 – 4.6%*. Aniqligi eng past model sifatida qayd etildi.

Ko‘p omilli model (U + T kombinatsiyasi)

$$W = a_0 + a_1U + a_2T + a_3U^2$$

Natijalar: R² = 0.993 – 0.996; RMSE = 1.1 – 1.5%. Temperatura kompensatsiyasi hisobiga aniqlik 12–18% ga yaxshilandi. Bu model *amaliy qo‘llash uchun eng maqbul* deb topildi.

Metrologik barqarorlikka ta’sir etuvchi omillarning taxlili

Takrorlanuvchanlik (repeatability). Standart og‘ish *σ = 0.12 – 0.28 pF;* Namlikdagi xatoga ta’siri*: ±0.4 – 0.9%*

Qayta tiklanuvchanlik (reproducibility). Turli vaqtda olingan ma’lumotlarda farq: *1.2 – 1.9%*

Dreyf (uzoq muddatli siljish) 30 kunlik monitoring: $D = 0,0035n\Phi / kun(o'rta)$ Namlik xatosini *0.6–0.8%* ga oshirgan

Temperatura ta’siri. Signal o‘zgarishi:

$$\Delta U_T = 0,18 - 0,24\% /^o C$$

Kompensatsiya qilinmagan holda namlik xatosi:

$$\Delta W_T = 1,5 - 2,3\%$$

Dielektrik parametrlar o‘zgarishi. Mahsulot turiga ko‘ra xato *±1.2 – ±2.6%*.

Xato budjeti (Error Budget) hisob-kitobi. Jami xato:

$$\Delta W = \sqrt{(\Delta U)^2 + (\Delta T)^2 + (\Delta_\varepsilon)^2 + (\Delta_{rep})^2}$$

Natija: Umumiy xato: ±3.4%; Temperatura kompensatsiyasi bilan: *±2.1%;* Ko‘p omilli model bilan: *±1.3%*.

Grafiklar (tavsifi). Aniqlangan ma’lumotlar bo‘yicha tegishli grafiklarni keltiramiz (1, 2,3-rasmlar)



a) b)

1-rasm. Dielektrik sensorning namlikka bog‘liq U(W) kalibrlash egri chizig‘i a)) va b) Grafikda to‘g‘ri chiziq (kalibrlash funksiyasi) va real o‘lchov nuqtalari orasidagi farq ko‘rsatilgan

Namlik qiymatlarining (W, %) sensor elektr signali (U, pF) bo‘yicha eksperimental nuqtalar diagrammasi. Bu grafik sensordan olingan ma’lumotlarni ko‘rsatadi va kalibrlash modellarini qurish uchun asos hisoblanadi.



c) d)

2-rasm. Turli kalibrlash modellari uchun RMSE qiymatlarining taqqoslanishi c) va d) 30 kundan ortiq dielektrik sensorning siljish grafiki



3-rasm. Polinom kalibrlash modeli a) va b) Eksponensial kalibrlash model grafiki



3-rasm. Polinom va eksponensial kalibrlash modellarini taqqoslash grafiki

Grafiklarni chizish va ularda natijalarni ifodalash – sensor modellarini ilmiy asoslash, xatolarni tahlil qilish va qaysi kalibrlash modeli eng aniq ekanini isbotlash uchun tuziladi.

KALIBRLASH ALGORITMI

Tayyorgarlik va etalonlash

- Etalonli (gravimetrik) namlikni aniqlash uchun standart vositadan foydalaniladi (±0.2% aniqlik).
- Sensorni laboratoriya shartlarida yangi holatda ishga tushiriladi (stabil 20°C, 50% RH yoki talab etilgan shart).

1. **Ma’lumot yig‘ish**

- Namlik doirasi bo‘yicha 6–10 ta nuqta tanlanadi (masalan: 6,10,14,18,20,22,24,28%).
- Har nuqta uchun sensordan kamida 20–25 ta takroriy o‘qish olinadi.
- Har bir namlik nuqtasida etalon W_{ref} gravimetrik usul bilan aniqlanadi.
- Barcha signallarni va shart-sharoitlar (temperatura T, agar mavjud bo‘lsa) yozib boriladi.

2. **Ma’lumotni tozalash va agregatlash**

- Shovqinli o‘qishlarni chiqariladi (yoki median/bekor etish qoidalarini qo‘llang).
- Har nuqta uchun o‘rtacha U_{avg} va standart og‘ish σ hisoblanadi.

3. **Modellarni tanlash va qurish**

- Boshlang‘ichda to‘g‘ri chiziqli va polinomial(3)-ni qo‘llab ko‘riladi; agar nolineylik ko‘zga tashlansa — polinomial yoki ko‘p omilli modelga o‘tiladi.
- Mavjud T yoki ε (dielektrik) kabi korreksion parametrlar mavjud bo‘lsa — ko‘p omilli regressiya quriladi:
- $W = a_0 + a_1U + a_2T + a_3U^2$ har bir model uchun koeffitsientlarni $(a_0, a_1,..)$ hisoblabadi.

4. **Modellarni baholash**

- RMSE, MAPE, R^2 va takrorlanuvchanlikni (σ_r) hisoblanadi.
- Dreyf va qayta tiklanuvchanlikni (reproducibility) baholanadi (turli kunlarda/shartlarda sinov).

5. **Xato budjeti**

- Har bir xatoning hissasi ($\Delta U, \Delta T, \Delta\varepsilon, \Delta_{drift}, \Delta_{rep}$) ni aniqlab, umumiy xato topiladi:

$$\Delta W = \sqrt{\sum \Delta_i^2}$$

6. **Temperatura kompensatsiyasi**
- Agar temperatura ta’siri sezilarli bo‘lsa — modelga T terminni kiriting yoki sensor elektronikasida kompensatsiya sinovini amalga oshiriladi.
7. **Validatsiya va kross-validatsiya**
- K-fold (masalan *K=5*) kross-validatsiya bilan modelning umumiylashuvchanligini tekshiriladi.
- Agar lozim bo‘lsa, modelni qayta o‘qiting yoki yangi ma’lumot qo‘shiladi.
8. **Eskirish va dastlabki tekshiruv**
- Sensorni vaqtda kuzatib, 30–90 kun davomida dreyfni baholanadi. Agar dreyf prognoz qilingan chegaradan oshsa — qayta kalibrlash jadvalini belgilab qo‘yiladi.
9. **Hisobot va meta-tartiblar**
- Kalibrlash sertifikatini shakllantiriladi (qo‘llanilgan usul, etalonlar, hisoblangan xato).
- Ishlab chiqarish /operatsiya uchun kalibrlash grafiklari va algoritmi joriy etiladi.

XULOSA

Tadqiqot namlik sensorlarining kalibrlash modellarini tahlil qilish va ularning metrologik barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni baholashga qaratildi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Ushbu tadqiqot namlik sensorlarining kalibrlash jarayonida yuzaga keladigan xatolar tabiati va metrologik barqarorlikka ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganishga qaratildi. Olingan natijalar har xil turdagi matematik kalibrlash modellari (Chiziqli, polinomial, logarifmik, eksponensial va ko‘p omilli modellar)ning prognozlash qobiliyati va sezgirlik xususiyatlari o‘rtasida sezilarli farq borligini ko‘rsatdi. Jumladan: 3-darajali polinomial model namlikni aniq baxolashda eng yuqori aniqlikka ega bo‘lib, $R^2 \approx 0.99$ va minimal xatolikka erishdi. Chiziqli model past aniqlikka ega bo‘lib, amalda faqat taxminiy baholar uchun mos keladi. Haroratning ta’siri katta bo‘lib, uni hisobga olmagan modellar sezilarli sistematik xatolarga ega. Eksponensial va logarifmik modellar ma’lum diapazonlardagina samarali; umumiy kalibrlashda tavsiya etilmaydi. Sensor dreyfi va dielektrik material o‘zgarishi metrologik barqarorlikning asosiy cheklovchilari hisoblanadi. Qo‘p omilli *(U, T, U²)* modellar namlik o‘lchashni 30% gacha yaxshilab, sensorning uzoq muddatli barqarorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari namlik sensorlari uchun yangi avlod intellektual kalibrlash algoritmlarini ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Trabelsi, S., & Nelson, S. O. (2020). Microwave sensing of grain moisture content: A review. *Measurement*, 159, 107786. https://doi.org/10.1016/j.measurement.2020.107786
2. Kandpal, L. M., Lee, H., & Cho, B.-K. (2019). Non-destructive sensing methods for food quality: A review. *Sensors*, 19(16), 3461. https://doi.org/10.3390/s19163461
3. Nelson, S. O. (2015). Dielectric properties of agricultural materials and their applications. *Journal of Microwave Power and Electromagnetic Energy*, 49(1), 17–29. https://doi.org/10.1080/08327823.2015.11698082
4. Khaled, A. Y., et al. (2018). Moisture estimation in grains using dielectric and NIR techniques. *Biosystems Engineering*, 170, 81–93. https://doi.org/10.1016/j.biosystemseng.2018.03.006

5. Jha, S. N., & Narsaiah, K. S. (2021). Advances in electronic moisture sensors for agricultural products. *Food Analytical Methods*, 14, 992–1005. https://doi.org/10.1007/s12161-020-01932-z
6. Trabelsi, S., Kraszewski, A. W., & Nelson, S. O. (2013). Temperature-compensated microwave moisture measurement. *IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement*, 62(4), 866–872. https://doi.org/10.1109/TIM.2012.2227252
7. Feng, H., & Tang, J. (2019). Dielectric properties and temperature effect in moisture sensing. *Food Engineering Reviews*, 11, 109–121. https://doi.org/10.1007/s12393-019-9192-
8. Moreira, V. R., et al. (2022). Stability and drift analysis of capacitive sensors: A comprehensive review. *Sensors and Actuators A: Physical*, 341, 113592. https://doi.org/10.1016/j.sna.2022.113592
9. P.I. Kalandarov. O‘zbekistonda metrologiya tizimi va uning ta’minotiga oid asosiy tushunchalar. “O‘zbekiston metrologiyasi” ilmiy-texnik jurnali. 2-2025. 8-13 b.
10. Каландаров П.И., Саидорипов Л. Ф., Искандаров Б. П. Влияние объёмной плотности зерна пшеницы на точность измерения его влажности сверхвысокочастотным методом. Измерительная техника. 2025. Т. 74. № 5. С. 105-113. https://doi.org/10.32446/0368-1025it.2025-5-105-113
11. Каландаров П.И., Искандаров Б. П. Проточный влагомер для измерения влажности зерна в составе автоматизированной системы контроля влажности зерна. Измерительная техника. 2024. № 5. С. 18-25. https://doi.org/10.32446/0368-1025it.2024-5-18-25
12. Kalandarov P.I. Biogas production in biotechnological facilities Science and Innovation. 2024. Т. 3. № 1-1. С. 121-130. https://doi.org/10.5281/zenodo.10575821
13. Ikramov G.I., Kalandarov P.I. Measurement of grain and grain products moisture content by ultrahigh-frequency method: influence of grain density inhomogeneity on the mass ratio of moisture. Measurement Techniques. 2022. Т. 65. № 9. С. 695-701. https://doi.org/10.1007/s11018-023-02141-9
14. Kalandarov P., Murodova G. Study on microprocessor control of agricultural greenhouse microclimate/E3S Web of Conferences. 2024. Т. 497. С. 03026. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449703026
15. Каландаров П.И., Искандаров Б. П. Проточный влагомер для измерения влажности зерна в составе автоматизированной системы контроля влажности зерна/Измерительная техника. 2024. № 5. С. 18-25. https://doi.org/10.1007/s11018-024-02354-6

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

INVESTIGATION OF RIGIDITY INDICATORS OF PACKAGE STRUCTURES IN SPINNING MACHINES

Mamadjanov Shukurjon Rustamovich[1],
Ergashev Zoirbek Nurmatjon o'g'li[2],
Sayidmurodov Mirzoxid Mirzarakhimovich[3]
[1]*Researcher, Namangan State Technical University Uzbekistan, Namangan city*
[2]*Namangan Institute of Engineering and Technology, PhD, Associate Professor*
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907092

Abstract. *Composite structures consisting of a package of assembled flat elements are widely used in spinning machines in textile enterprises. They can be used as working parts or load-bearing elements. This article addresses the issue of phenomenological determination of the rigidity indicators of these structures.*
Key words: *composite structures, flat element package, bending rigidity, longitudinal rigidity, torsional rigidity.*

Annotatsiya. *To'qimachilik korxonalarida qo'llaniladigan yigiruv mashinalarida jamlangan yassi elementlar paketidan tashkil topgan tarkibli konstruksiyalar keng qo'llaniladi. Ular ishchi organlar yoki tashuvchi elementlar sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu maqolada konstruksiyalarning bikrlik ko'rsatkichlarini fenomenologik aniqlash masalasi ko'rib chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *tarkibli konstruksiyalar, yassi elementlar paketi, egilishdagi bikrlik, buylama bikrlik, aylanma bikrlik.*

Аннотация. *Композитные конструкции, состоящие из пакета сборных плоских элементов, широко применяются в прядильных машинах текстильных предприятий. Они могут использоваться в качестве рабочих органов или силовых элементов. В данной статье рассматривается вопрос феноменологического определения показателей жёсткости конструкций*
Ключевые слова: *композитные конструкции, пакет плоских элементов, особенность при изгибе, особенность при кручении, особенность при вращении.*

Introduction. Structural constructions used in various industry sectors are divided into two groups based on their function: constructions used as support (load-bearing) elements and constructions used as working components. Structural constructions belonging to both groups

can also be classified into two types based on their operating principle: those that do not use force factors for structural purposes and those that do.

Force factors can be applied in structural constructions to increase their durability and rigidity. This can be achieved through elastic reinforcement, press fitting (interference fits) to create a rigid spatial structure, as well as by forming packages composed of multiple elements that can operate under tension, compression, bending, and torsion. For this purpose, force factors are applied longitudinally, transversely (including radially), and as moments [1,2].

Meeting both technological and structural requirements simultaneously in modern constructions is a complex task. Successfully solving this problem requires the use of unconventional approaches. One such approach is optimal design. The distinctive feature of optimal design is that, based on given initial parameters or constraints, the optimal or extreme values of certain parameters such as weight or cost are determined. With the increase in the number of factors considered and the growing demands for design accuracy, the need to precisely identify factors of various physical natures has arisen.

In mechanical engineering, construction, and spacecraft, structural constructions made of flat element packages compressed by a special tensioning cable are used. These elements may be identical in shape and size or vary according to certain rules, and they can be made from the same or different materials. The main purpose of such constructions is to increase the stiffness parameters of the support elements and working parts of machines.

In modern textile industry technological machines, working elements often consist of a package of flat, disk-shaped elements. This package is assembled on a shaft and reinforced by longitudinal compressive force. Some studies indicate that the pneumatic-mechanical spinning method is promising. The most common equipment in this system is the disk spinning chamber.

One of the important working elements of spinning machines is the discrete drum (see Figure 1), which is assembled from disks of two different diameters [3,4]. The disk assembly alternately creates gaps and clearances, all of which have the same width. The disks are compressed longitudinally by compression nuts, forming a package that can withstand tensile, compressive, bending, and torsional forces. The main mechanical parameters of the cylinder include stiffness in longitudinal, bending, and torsional directions. It is known that these parameters consist of the combined stiffness of the shaft and the disk package. Methods for calculating the stiffness parameters of the shaft are known [5], so it is sufficient to determine the stiffness parameters of the disk package.

However, the mechanics of such layered constructions have not been sufficiently developed because there is currently no reliable, scientifically based method to theoretically determine their stiffness parameters accurately and to identify the specific characteristics of dynamic processes.

Studying the behavior of layered constructions under bending, tension-compression, and torsion, as well as developing analytical methods to determine their stiffness parameters and analyzing the influence mechanisms of design and operational factors, presents a complex physical-mechanical problem. Highly simplified models yield low-accuracy results, while very complex models become practically inefficient due to the large number of factors and their varied effects on layered rods.

Currently, in the study of complex objects, methods such as diakoptics, finite element methods, and phenomenological approaches are considered effective. Diakoptics and finite

element methods are based on dividing the object into parts for study and require individual approaches or powerful computers.

Phenomenological analysis, on the other hand, is based on studying the object as a whole without dividing it into parts, allowing this approach to avoid deviating from the physical essence of the processes. For this reason, we study the behavior of flexible layered constructions under external influences based on phenomenological analysis. In this case, the layered compression or monolithic layered rods (formed by welding or bonding) are considered as theoretical models.

Research Methods. Our preliminary theoretical and experimental studies (also confirmed by other authors) show that as the compression force of the package increases from zero, the following phenomena are observed:

-The values of bending, longitudinal, and torsional stiffness indicators continuously increase. At the same time, the discrete stiffness values asymptotically approach those calculated for the monolithic layered rod.

-The growth rate of bending, longitudinal, and torsional stiffness decreases steadily from the maximum value at zero compression force and asymptotically approaches zero.

-According to experimental results, in some cases, either directly or at least through extrapolation, the compression force of the package can be determined at such values where the stiffness indicators differ from the values calculated by the MPS (monolithic layered rod) model by no more than a predetermined very small limited amount.

-The practical ranges of stiffness increase and the decrease in their growth rates are limited depending on the technical specifications and mechanical parameters of the layered rod.

From the above, the following conclusion can be drawn: at appropriate values of the package compression force, the growth rates of bending, longitudinal, and torsional stiffness of the GPS (porous layered rod) can, as a first approximation, be considered proportional to the difference between the calculated stiffness of the MPS monolithic layered rod and the stiffness of the GPS, and inversely proportional to the compression force values [3].

It should be emphasized that the compression force increases linearly over its entire range of variation [0, N₀]. Taking this fact into account, the value of the compression force can be assumed to be equal to the half-sum of its values at the boundary points of this range [4].

$$N = \frac{O + N_0}{2} = \frac{N_0}{2} \qquad (1)$$

Based on the above foundations, it is possible to mathematically investigate the variation processes of the longitudinal, bending, and torsional stiffness parameters of the package rod depending on changes in the package compression force values, as well as to develop mathematical models. The similarity in the variation patterns of the bending, longitudinal, and torsional stiffness of the GPS (porous package rod) allows for their simultaneous study.

Research results. According to the accepted main views and assumptions, with each change in the values of the package compression force, the increase in the values of the longitudinal, bending, and torsional stiffness follows the law: it is proportional to the difference between the corresponding MPS (monolithic package rod) stiffness values and the stiffness values, and inversely proportional to the average values of the package compression force.

$$dB_n = \frac{2\left(B_{pn} - B_n\right)}{N_o} dN \qquad (2a)$$

$$dC_{II} = \frac{2\left(C_{pII} - C_{II}\right)}{N_0} dN \qquad (2b)$$

$$dD_k = \frac{2\left(D_{pk} - D_k\right)}{N_0} dN \qquad (2s)$$

Here:

dBn,dCi,dDkdB_n, dC_i, dD_kdBn,dCi,dDk — increases in the longitudinal, bending, and torsional stiffness of the flexible package rod, respectively;

dNdNdN-increase in the value of the package compression force;

BpnB_(pn)Bpn-calculated longitudinal stiffness for the monolithic package rod;

CpiC_{pi}Cpi-calculated bending stiffness for the monolithic package rod;

DpkD_{pk}Dpk-calculated torsional stiffness for the monolithic package rod;

BnB_nBn-current longitudinal stiffness of the package rod;

CiC_iCi-current bending stiffness of the package rod;

DkD_kDk-current torsional stiffness of the package rod;

N02\frac{N_0}{2}2N0-average value of the package compression force.

All other influencing factors not taken into account are also determined through the first functions An,AuA_n, A_uAn,Au, and AkA_kAk, respectively, which for now are assumed to be constant (unchanging).

Thus, equations (2a), (2b), and (2c) can be rewritten in the following form:

$$dB_n = \frac{2A_n(B_{pn} - B_n}{N_0} dN \qquad (3a)$$

$$dC_{II} = \frac{2A_u(C_{pu} - C_u)}{N_0} dN \qquad (3b)$$

$$dD_k = \frac{2A_k(D_{pk} - D_k}{N_0} dN \qquad (3s)$$

In these equations, the variables are separated.

$$\frac{dB_n}{dN} = \frac{2A_n(B_{pn} - B_{n)}}{N_0} \qquad (4a)$$

$$\frac{dC_{II}}{dN} = \frac{2A_k(C_{PII} - C_{II})}{N_0} \qquad (4b)$$

$$\frac{dD_k}{dN} = \frac{2A_k(D_{pk} - D_k)}{N_0} \qquad (4s)$$

At the same time, the obtained equations can be rewritten in the following form:

$$\frac{dB_n}{dN} + \frac{2A_n}{N_0} B_n - \frac{2A_n B_{pn}}{N_0} = 0 \qquad (5a)$$

$$\frac{dC_{II}}{dN} + \frac{2A_u}{N_0} C_{II} - \frac{2A_u C_{PII}}{N_0} = 0 \qquad (5b)$$

$$\frac{dD_k}{dN} + \frac{2A_k D_k}{N_0} - \frac{2A_k D_{pk}}{N_0} = 0 \qquad (5s)$$

Equations (5a), (5b), and (5c) are first-order ordinary linear differential equations, and their general solutions can be written in the following form:

$$B_n = B_{pn} + C_1 e^{-\frac{2A_n N}{N_0}} \quad (6a)$$

$$C_{II} = C_{PII} + C_2 e^{-\frac{2A_u N}{N_0}} \quad (6b)$$

$$D_k = D_{pk} + C_3 e^{-\frac{2A_k N}{N_0}} \quad (6s)$$

To determine the integration constants, we formulate the boundary conditions in the following form:

Conditions: N=0, B_n=0; N=0, C_и=0; N=0, D_k=0;

From these, we find: C_1 = B_pn; C_2 = C_pи; C_3 = D_pk.

Thus, equations (6a), (6b), and (6c) take the following form:

$$B_n = B_{pn}(1 - e^{-\frac{2A_n N}{N_0}}) \quad (7a)$$

$$C_{II} = C_{PII}(1 - e^{-\frac{2A_u N}{N_0}}) \quad (7b)$$

$$D_k = D_{pk}(1 - e^{-\frac{2A_k N}{N_0}}) \quad (7s)$$

Now, for the longitudinal, bending, and torsional rigidities of the monolithic package rod, we use the solutions from formulas (2), (3), and (4), which are constructed alternately from working and spacer discs. Thus, based on phenomenological determination, the following expressions can be written for the values of longitudinal, bending, and torsional rigidities:

$$B_n = \frac{(l_p + l_n)E_p F_p E_n F_n}{l_n E_p F_p + l_p E_p F_p}(1 - e^{-\frac{2A_n N}{N_0}}) \quad (8a)$$

$$C_u = \frac{(l_p + l_n)E_p J_p E_n J_n}{l_n E_p J_p + l_p E_n J_n}(1 - e^{-\frac{2A_k N}{N_0}}) \quad (8b)$$

$$D_{pk} = \frac{(l_p + l_n)G_p J_{pp} G_n J_{pn}}{l_n G_p J_{pp} + G_p G_n J_{pn}}(1 - e^{-\frac{2A_k N}{N_0}}) \quad (8s)$$

Here:

-lp,lnl_p, l_nlp,ln — thicknesses of the working and spacer discs;

-Ep,EnE_p, E_nEp,En — elastic moduli of the materials of the working and spacer discs;

-Jpp,JpnJ_{pp}, J_{pn}Jpp,Jpn — polar moments of inertia of the cross-sectional areas of the working and spacer discs.

We accept the influence functions of the transverse force on the longitudinal, bending, and torsional stiffnesses (or briefly, the functions of longitudinal, bending, and torsional rigidities) in the following form:

$$\mu = (1 - e^{-\frac{2A_n N}{N_0}}) \quad (9a)$$

$$\eta = (1 - e^{-\frac{2A_u N}{N_0}}) \quad (9b)$$

$$\nu = (1 - e^{-\frac{2A_k N}{N_0}}) \quad (9s)$$

Then, equations (9a), (9b), and (9c) are expressed in the following form:

$$B_n = \mu \frac{(l_p + l_n)E_p F_p E_n F_n}{l_n E_p F_p + l_p E_p F_p} = \mu B_{pn} \qquad (10a)$$

$$C_u = \eta \frac{(l_p + l_n)E_p L_p E_n J_n}{l_n E_n J_p + l_p E_n J_n} = \eta C_{pu} \qquad (10b)$$

$$D_k = \nu \frac{(l_p + l_n)G_p J_{pp} G_n J_{pn}}{G_n G_p J_{pp} + G_p G_n J_{pn}} = \nu D_{pk} \qquad (10s)$$

The obtained solutions describe both qualitatively and quantitatively the changes in longitudinal, bending, and torsional stiffness parameters of layered structures composed of flat elements.

Conclusion. The obtained solutions are important not only theoretically but also practically. They demonstrate how the longitudinal, bending, and torsional stiffness of layered structures (consisting of working and spacer elements) change qualitatively and quantitatively. This can be applied in:

-Designing layered rods, disk systems, transmission elements, and composite structures operating under various loads;

-Enhancing the vibration resistance of working components in spinning machines and ensuring energy efficiency.

Determining stiffness parameters through a phenomenological approach increases the reliability of constructions, extends their service life, and enables optimal material selection. Therefore, the results of this study can be used both in scientific research and practical design processes.

REFERENCES

1. Бидерман В.Л. Теория колебаний. – Москва: Высшая школа, 1980, 408с.
2. Севостьянов А.Г., Севостьянов П.А. Оптимизация механико - технологических процессов текстильной промышленности //Учеб. для вузов. – М.: Легпромбытиздат, 1991. – 256 с.
3. Сайидмуродов М.М., М.Абдувахидов. Исследование теоретических основ определения изгибной жесткости пакетных конструкции. “Проблемы механики” НТЖ. –Ташкент, 2017. -№ 4. –С. 51-56.
4. Сайидмуродов М.М., М.Абдувахидов. Феноменологическое определение параметров жесткости пакетных конструкций. НамМТИ илмий-техника журнали. –Наманган, 2019. -№2-сон. –С. 128-133.
5. Сайидмуродов М.М., М.Абдувахидов. Об аналитическом и феноменологическом определении изгибной жесткости делительного цилиндра.
6. Матуконис, А.В. Строение и механические свойства неоднородных нитей / А.В. Матуконис. – М.: Легкая индустрия, 1971. – 192 с.
7. Соколов, Г.В. Вопросы теории кручения волокнистых материалов / Г.В. Соколов. – М.: Гизлегпром, 1957. – 234 с.
8. Сенатов Г.В. Теория ложной крутки при производстве нитей эластик (хеланка). - Текстильная промышленность, I973,№3. - с.34-39.
9. Мигушов И.И. Критическая скорость врашения нити в камере и устойчивость пневмопрядения. - Изв.вузов. Технология текстильной промышленности, 1975, №1. - с.54-58.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

FM VA INTERNET-RADIO TARMOQLARINING SIFAT KO'RSATKICHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Narzulloyev Oybek[1], Ubaydullayev Shoxjaxon[2], Abdullaev Asadbek[3]
[1]dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent
[2,3]magistrant, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshken
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907159t

Annotatsiya. *Ushbu maqolada an'anaviy FM radio va zamonaviy Internet-radio tarmoqlarining sifat ko'rsatkichlari texnik va foydalanuvchi tajribasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Har bir tizimning ishlash prinsipi, afzallik va kamchiliklari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Internet-radio yuqori sifat va global qamrovda ustun, FM radio esa ishonchliligi va barqarorligi bilan ajralib turadi.*
Kalit so'zlar: *FM radio, Internet-radio, striming, audio sifat, audio kechikish, SNR, QoS, QoE, MOS.*

Abstract. *This article analyzes the quality indicators of traditional FM radio and modern Internet radio networks from the perspective of technical parameters and user experience. The operating principles, advantages, and disadvantages of each system are examined. The results show that Internet radio excels in sound quality and global coverage, while FM radio stands out for its stability and low latency.*
Key words: *FM radio, Internet radio, streaming, audio quality, latency, SNR, QoS, QoE, MOS.*

Аннотация. *В данной статье проведён анализ показателей качества традиционного FM-радио и современных интернет-радиосетей с точки зрения технических параметров и пользовательского опыта. Изучены принципы работы, преимущества и недостатки каждой системы. Результаты показывают, что интернет-радио превосходит по качеству звучания и глобальному охвату, тогда как FM-радио отличается стабильностью и низкой задержкой.*
Ключевые слова: *FM-радио, интернет-радио, стриминг, качество звука, задержка, SNR, QoS, QoE, MOS.*

Kirish. Radio texnologiyasi bir asrdan ortiq vaqt davomida insoniyat hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda. FM radio 20-asrning o'rtalaridan boshlab ovozli eshittirishning asosiy

shakliga aylandi.An’anaviy radio chastota o‘zgarishlari hamda uzatuvchi antenna masofasi bilan cheklanganligi sababli, ehtimol kimdir signalni qabul qilishda muammolarga duch kelgan bo‘lishi mumkin - radiostansiya shovqinlana boshlaydi yoki umuman efirda sukut bo‘ladi. Va bu usulning o‘ziga xos cheklovi bor: FM-radio odatda uzatuvchidan taxminan 40-50 mil (64-80 km) masofagacha eshittirish olib boradi, bu esa geografik joylashuvga qarab qamrovning notekis bo‘lishiga olib keladi [6]. Onlayn radio - bu audio kontentni internet orqali uzatish tizimidir. U tinglovchilarga dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan istalgan radiostansiyaga, o‘z joylashuvlaridan qat’i nazar, ulanib tinglash imkonini beradi. Onlayn radioning an’anaviy radiodan farqi shundaki, u fizik radiopriyomnikni talab qilmaydi va radioto‘lqinlarga bog‘liq emas. Uni tinglash uchun faqat internet aloqasi va mos qurilma (kompyuter, smartfon yoki planshet) kifoya qiladi[1-3].

Bugungi kunda tinglovchi ikki asosiy tizim o‘rtasida tanlov qiladi:

- FM radio - analog chastota modulyatsiyasiga asoslangan. Uzatish 87.5-108 MHz diapazonda amalga oshiriladi. Qabul qiluvchi qurilma antennasi orqali to‘lqinni qabul qiladi, demodulyatsiya orqali tovush qayta tiklanadi.
- Internet-radio - bu real vaqtda internet orqali audio kontentni uzatish texnologiyasi. FM eshittirishidan farqli o'laroq, radio to'lqinlar yoki transmitterlarni talab qilmaydi: signal IP (Internet Protocol) orqali uzatiladi.

Ushbu tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, unda FM va Internet-radio tizimlari texnik ko‘rsatkichlar asosida eksperimental tarzda qiyosiy tahlil qilindi.

Adabiyotlar sharhi. Ko‘plab tadqiqotlarda radio uzatish texnologiyalarining sifat ko‘rsatkichlari keng tahlil qilingan. Masalan, S. Patel (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Internet-radio strimingida QoE (Quality of Experience) - ya’ni foydalanuvchi hissiy qoniqish darajasi - to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarmoq sifati va uzatish barqarorligiga bog‘liqligi isbotlangan[1]. Shuningdek, “Digital Audio Broadcasting or Webcasting: A Network Quality Perspective” (2016) jurnal maqolasida Webcasting (Internet-radio) tarmoqlarida kechikish (latency), paket yo‘qotilishi (packet loss) va audio signal tahlili o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, audio sifat ko‘rsatkichlari tarmoqning texnik barqarorligiga bevosita bog‘liq, ammo barqaror Internet tarmoqlarida Web-radio sifati an’anaviy FM radio sifatidan yuqori ekani ta’kidlangan [2]. Bundan tashqari, B. D. Rickert (2011) o‘zining “Internet Audio Streaming and the Emerging Model of Radio” nomli ilmiy ishida FM va Internet-radio tizimlarini foydalanuvchi tajribasi, uzatish sifati hamda qamrov darajasi nuqtai nazaridan tahlil qilgan[3]. Mazkur ilmiy ishlanmalar ushbu maqolaning nazariy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, bizning tadqiqotda Internet-radio va FM radio tizimlarining nafaqat nazariy, balki texnik-amaliy farqlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ularning signal sifati, kechikish, shovqinbardoshliligi va tarmoq barqarorligi kabi ko‘rsatkichlari asosida qiyosiy baholash amalga oshiriladi.

Metodologiya. Avvalgi tadqiqotlarda FM radio va Internet-radio tizimlari o‘rtasidagi taqqoslashlar asosan auditoriya xulq-atvori (audience behavior) nuqtai nazaridan olib borilganligi kuzatildi. Masalan, B. D. Rickert tomonidan o‘tkazilgan “Internet Audio Streaming and the Emerging Model of Radio” nomli tadqiqotda respondentlarning 83% qismi Internet-radio audio sifatini “yanada toza” yoki “balandroq chastota aniqligiga ega” deb baholagan. Shu bilan birga, 60% foydalanuvchi “buferlash” (“buffering” - audio oqimini vaqtincha to‘xtatib saqlash jarayoni) muammosini qayd etgan bo‘lib, bu holat tarmoq barqarorligi va uzatish tezligiga bog‘liq uzilishlar bilan izohlanadi[3]. Biroq ushbu tadqiqotlarning ko‘pchiligi subyektiv foydalanuvchi tajribasiga asoslangan bo‘lib, texnik parametrlar bo‘yicha chuqur tahlil yetarlicha

yoritilmagan. Shu sababli mazkur maqolada FM radio va Internet-radio tizimlarining texnik ko‘rsatkichlari asosida qiyosiy tahlil amalga oshirish maqsad qilindi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirish o‘tkazildi:

1-jadval

№	Ko‘rsatkich nomi	FM radio	Web-radio (128 kbps AAC)	Web-radio (320 kbps MP3)
1	Signal-to-Noise Ratio (SNR), dB	60	50	58
2	Frequency Response (Hz)	30–15 000	40–16 000	20–18 000
3	Dynamic Range (dB)	70	65	72
4	Latency (ms)	15	280	250
5	Bitrate (kbps)	~256 (analog)	128	320
6	Reliability (dropout%)	0.5	2.8	1.2

Tahlil natijalariga ko‘ra (1-jadval), FM radio signali past kechikish va yuqori ishonchlilik bilan ajralib turadi, biroq uning chastota diapazoni cheklangan. Internet-radio esa kodek sifatiga va tarmoq barqarorligiga bog‘liq. 128 kbps oqimda sifat biroz past bo‘lsa, 320 kbps oqimda audio sifat deyarli FM darajasiga tenglashadi. Shovqin nisbati (SNR) bo‘yicha FM ustun, ammo chastota diapazoni va aniqlikda 320 kbps oqim afzal.

Tahlil. FM radio tizimlari analog modulyatsiya prinsipi asosida ishlaydi. Shu sababli u shovqin (interferensiya), elektromagnit xalaqitlar va qamrovdagi uzilishlar ta’siriga nisbatan sezuvchandir. Natijada, bu omillar audio signal sifatining pasayishiga, ya’ni tovushdagi shovqinlar, xiralik yoki uzilishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Internet-radio (yoki Web-radio) raqamli kompressiya va striming (streaming) texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, yuqori aniqlikdagi (high-fidelity) audio uzatish imkonini beradi. Bu tizimda audio ma’lumot raqamli formatda kodlanadi (masalan, AAC, Opus yoki MP3 kodeklari yordamida) va foydalanuvchiga moslashtirilgan oqim tezligi (adaptive bitrate streaming) orqali uzatiladi.

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, internet tezligi past bo‘lganda audio oqim sifati avtomatik tarzda bitratni kamaytirish hisobiga pasayadi. Bu esa striming sifatining tarmoq o‘tkazuvchanligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, barqaror internet aloqasi, yuqori bit-rate va samarali kodeklar (AAC, Opus) sharoitida Internet-radio audio sifati FM radiodan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Shunday qilib, FM radio va Internet-radio texnologiyalari o‘rtasidagi asosiy farq signal uzatish mexanizmi va sifatga ta’sir etuvchi tashqi omillarda namoyon bo‘ladi: biri analog signalning tabiiy barqarorligiga, ikkinchisi esa raqamli tarmoqning o‘tkazuvchanligi va adaptiv texnologiyalariga tayanadi.

FM radio va Internet-radio: Sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirish

2-jadval

Ko‘rsatkich	FM radio	Internet radio
Audio sifat	Ovoz analog tarzda uzatiladi va bu ba’zi holatlarda shovqinlar bilan birga bo‘lishi mumkin	Internet-radio raqamli (digital) formatda eshittiriladi. Agar internet tezligi yuqori bo‘lsa, juda tiniq va barqaror audio sifat taqdim etiladi
MOS (Mean Opinion Score)	Odatda 3.5–4 ball oralig‘ida bo‘ladi. Havo sharoiti, qurilma sifati va geografik joylashuvga bog‘liq holda o‘zgaradi.	Yaxshi internet sharoitida 4.2–4.5 ballgacha yetishi mumkin. Tarmoq uzilishlari bo‘lsa, bu ko‘rsatkich tez pasayadi
QoS (Quality of Service)	FM radiosida an’anaviy tarmoqlarda QoS nazorati mavjud emas, chunki u umumiy efir orqali uzatiladi.	Internet-radio IP tarmoqlarda ishlaydi, bu yerda **tarmoqli kengligi, kechikish (latency), paket yo‘qotilishi** QoS sifatiga ta’sir qiladi. Ba’zi xizmatlar QoS ni boshqaradi.
QoE (Quality of Experience)	Odatda barqaror, ammo joylashuvga bog‘liq. Avtomobilda, ochiq joylarda yaxshi; binolar ichida yoki tog‘li hududlarda yomonlashadi	Agar internet tez va barqaror bo‘lsa - yuqori. Mobil internetda esa uzilishlar bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, FM radio tizimlari signalning uzluksizligi, past kechikish va barqaror efir uzatish kabi afzalliklarga ega. Biroq u analog modulyatsiya tabiati tufayli shovqin (interferensiya) va qamrovdagi uzilishlarga nisbatan sezuvchan bo‘lib, bu holat audio sifatning pasayishiga olib keladi. Internet-radio esa raqamli kompressiya va striming texnologiyalari asosida ishlaydi, natijada yuqori sifatli audio uzatish, global qamrov va foydalanuvchi uchun interaktiv imkoniyatlarni ta’minlaydi. Shu bilan birga, uning samaradorligi tarmoq barqarorligi va internet tezligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Amaliy nuqtai nazardan, Internet-radio multimedia xizmatlari, onlayn kontent va global eshittirish sohalarida ustunlik qiladi, holbuki FM radio tizimlari mobil aloqa, transport vositalari va favqulodda vaziyatlarda yanada ishonchli va tezkor aloqa vositasi bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, Internet-radio raqamli davrning yangi eshittirish standarti sifatida shakllanmoqda. U foydalanuvchi tajribasi (QoE), audio sifat ko‘rsatkichlari (SNR, THD, bitrate) va interaktivlik darajasi bo‘yicha FM radioga nisbatan ustunlik qiladi. Biroq, bu ustunlikning to‘liq amalga oshishi uchun barqaror va keng qamrovli internet infratuzilmasi muhim shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *S. Patel*, "Quality of Experience (QoE) in Streaming Media," Journal of Network and Systems Management, 2021.

2. "Digital Audio Broadcasting or Webcasting: A Network Quality Perspective," International Journal of Communication Networks, 2016.
3. *B. D. Rickert*, "Internet Audio Streaming and the Emerging Model of Radio," M.S. thesis, Michigan State University, 2011.
4. *A. M. Shelopaeva*, "Сравнительный анализ вещания традиционных средств радиовещания и современных онлайн-платформ," Journal of Modern Media Studies, 2021. "Differences Between FM Radio and Internet Radio," Radio World, 2023. [Online].
5. "FM vs. Internet Radio: Key Differences and Benefits," Glacer FM, 2023. [Online]. Available: https://www.glacerfm.com/fm-vs-internet-radio-key-differences-and-benefits-for-your-listening-choice/
6. Ghauti University, Mass Communication, Research Report, 2015.
7. "Digital Audio Broadcasting or Webcasting: A Network Quality Perspective," IEEE Transactions on Broadcasting, 2016.
8. *B. V. Raju*, Digital Radio Broadcasting: Principles and Applications. Wiley, 2017.
9. *P. Gilski and J. Stefański,* “Digital Audio Broadcasting or Webcasting: A Network Quality Perspective,” Journal of Telecommunications and Information Technology, vol. 1, no. 1, pp. 9–15, Mar. 2016. doi: 26636/jtit.2016.1.698.
10. *Przemysław Gilski, Sławomir Gajewski, Jacek Stefański,* Quality Aspects in Digital Broadcasting and Webcasting Systems: Bitrate versus Loudness , Journal of Telecommunications and Information Technology: No. 2 (2017).
11. *Bentley, J. M.* (2012). A uses and gratifications study of contemporary Christian radio web sites.
12. *S. Chan-Olmsted, R. Wang, and K.-H. Hwang*, “Substitutability and Complementarity of Broadcast Radio and Music Streaming Services: The Millennial Perspective,” Journal of Radio & Audio Media, vol. 26, no. 2, pp. 275–295, 2019.
13. *S. E. Lax, M. Ala-Fossi, P. Jauert, and H. Shaw*, “DAB: the future of radio? The development of digital radio in four European countries,” Media, Culture & Society, vol. 30, no. 5, pp. 571–588, 2008.

“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS”

AUDIODAGI SHOVQINLARNI TOZALASH ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING TURLI AMALIY TIZIMLARDA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Narzulloyev Oybek[1], Abdullaev Asadbek[2], Ubaydullayev Shoxjaxon[3]
[1]Dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent
[2]Magistrant, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent
[3]Magistrant, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907179

Annotatsiya. *Ushbu maqolada audio signallarda uchraydigan turli shovqinlarni kamaytirish masalasi ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda ikki xil algoritm — Fourier va Kalman filtrlari tahlil qilinadi hamda ularning turli amaliy tizimlardagi samaradorligi solishtirildi. Fourier filtri chastota domenida ishlaydigan an’anaviy yondashuv sifatida, Kalman filtri esa adaptiv, statistik model asosida ishlovchi algoritm sifatida o‘rganildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, Kalman filtri dinamik shovqinlarni samaraliroq tarzda tozalaydi, Fourier filtri esa barqaror shovqinlarga nisbatan yuqori tezlikda ishlaydi.*
Kalit so‘zlar: *audio signal, shovqin, Fourier filtri, Kalman filtri, signalni qayta ishlash, shovqinni kamaytirish, SNR, MSE.*

Abstract. *This paper analyzes the problem of reducing various types of noise in audio signals. The study compares two algorithms – the Fourier filter and the Kalman filter, examining their performance and effectiveness in different practical systems. The Fourier filter is considered as a traditional approach operating in the frequency domain, while the Kalman filter functions as an adaptive algorithm based on a statistical model. Experimental results show that the Kalman filter is more effective in suppressing dynamic noise, whereas the Fourier filter performs faster when dealing with stationary noise.*
Key words: *audio signal, noise, Fourier filter, Kalman filter, signal processing, noise reduction, SNR, MSE.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема снижения различных типов шумов в аудиосигналах. В исследовании проведено сравнение двух алгоритмов – фильтра Фурье и фильтра Кальмана, а также анализ их эффективности в различных практических системах. Фильтр Фурье представлен как традиционный подход, работающий в частотной области, тогда как фильтр Кальмана является адаптивным алгоритмом, основанным на статистической модели. Результаты экспериментов*

показывают, что фильтр Кальмана более эффективно устраняет динамические шумы, в то время как фильтр Фурье работает быстрее при обработке стационарных шумов.

Ключевые слова: *аудиосигнал, шум, фильтр Фурье, фильтр Кальмана, обработка сигналов, снижение шума, SNR, MSE.*

Kirish.

Audio signallarni shovqindan tozalash — raqamli signalni qayta ishlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu masala nutqni tanish, ovozli aloqa tizimlari, musiqa ishlab chiqarish, radioeshittirish va xavfsizlik tizimlarida muhim amaliy ahamiyatga ega. Audio ma’lumotlar yozib olinayotgan jarayonda turli manbalardan keladigan oq shovqin, fon shovqin yoki impulsiv shovqin kabi tashqi ta’sirlar signal sifatini keskin pasaytiradi. Shu sababli, so‘nggi o‘n yilliklarda shovqinni kamaytirish algoritmlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganib kelinmoqda.

Dastlabki tadqiqotlar asosan Fourier transformatsiyasiga asoslangan chastota domenidagi filtratsiya usullari orqali olib borilgan. Masalan, A. V. Oppenheim va R. W. Schafer o‘zlarining “Discrete-Time Signal Processing” (2010) asarida audio signallarni chastota bo‘yicha tahlil qilish va past/yuqori chastotali shovqinlarni olib tashlash metodikasini ishlab chiqqanlar [1]. Keyinchalik Wiener va Butterworth filtrlarining modifikatsiyalari paydo bo‘lib, ular barqaror shovqinlarni samarali kamaytirgan, ammo vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan (no-statsionar) shovqinlar uchun yetarli aniqlik bermagan [5].

1990-yillardan boshlab, bu muammo statistik yondashuvlar asosida hal qilina boshlandi. R. E. Kalman tomonidan ishlab chiqilgan Kalman filtri (1960) dastlab navigatsiya va boshqaruv tizimlarida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik audio signallarni real vaqtli tozalashda ham keng tadbiq etila boshlandi [3]. P. Maybeck (1982) va S. Haykin (2013) ishlarida Kalman filtri asosida signal holatini baholash va shovqinni adaptiv tarzda kamaytirish algoritmlari chuqur o‘rganilgan [2, 4].

Mazkur ishning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda nutqni aniqlash, audio tahrir va sun'iy intellekt asosidagi ovoz tizimlarida shovqinni kamaytirish sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi eng muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli, Fourier va Kalman filtrlari asosida shovqinni tozalash usullarini solishtirish, ularning SNR (signal-to-noise ratio), MSE (mean square error) kabi ko‘rsatkichlar orqali samaradorligini baholash amaliy va ilmiy jihatdan muhimdir.

Asosiy qism.

1. Shovqinni kamaytirish usullari va baholash mezonlari

Shovqinlarni kamaytirish jarayonlari odatda ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: vaqt domenida va chastota domenida. Vaqt domenidagi usullar signalning vaqt bo‘yicha o‘zgarishiga asoslanadi va adaptiv xususiyatga ega bo‘ladi. Kalman, LMS (Least Mean Square) yoki RLS (Recursive Least Square) filtrlar shular jumlasidandir [2, 9]. Ular real vaqt rejimida signalni kuzatib boradi va statistik model asosida foydali qismni ajratib oladi. Chastota domenidagi yondashuvlarda esa signal avval Fourier transformatsiyasi orqali chastota spektriga o‘tkaziladi, so‘ng shovqin komponentlari chastotaviy filtr yordamida olib tashlanadi [1]. Fourier, Butterworth va Wavelet filtrlari aynan shu tamoyil asosida ishlaydi.

Audio sifatini yaxshilashda faqat signalni tozalashning o‘zi kifoya emas, balki uning natijasini baholash uchun ham aniq matematik mezonlar kerak bo‘ladi. Eng ko‘p ishlatiladigan

obyektiv kriteriyalardan biri bu Signal-to-Noise Ratio (SNR) bo‘lib, u foydali signal energiyasi bilan shovqin energiyasi o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi [8]:

$$SNR = 10log_{10}\frac{P_{signal}}{P_{noise}}\text{[dB]} \qquad (1)$$

Bu qiymat qancha katta bo‘lsa, signal shunchalik toza hisoblanadi. Ikkinchi muhim ko‘rsatkich — Mean Square Error (MSE) bo‘lib, u asl signal bilan tozalangan signal o‘rtasidagi o‘rtacha kvadrat farqni o‘lchaydi:

$$MSE = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N}(x_i - x'_i)^2 \qquad (2)$$

Bu parametr filtrning aniqligini ko‘rsatadi; MSE qiymati qancha kichik bo‘lsa, shovqin shunchalik samarali kamaytirilgan bo‘ladi [10].

2. Tajriba metodologiyasi va signallarni tayyorlash.

Mazkur tadqiqotda MATLAB platformasining virtual laboratoriyasida uchta asosiy mezon: signal sifati, aniqlik va tezlik tahlil qilindi [6]. Tajriba ishida birinchi navbatda bitta real audio fayl — inson nutqiga tegishli speech.wav signali tanlab olindi (1-rasm). Ushbu signalga sun'iy tarzda oq shovqin (white Gaussian noise) qo‘shildi, so‘ngra u ikkita filtr orqali qayta ishlandi (2-rasm) [13].



1-rasm. Asl audio signalning MATLAB muhitidagi ko‘rinishi



2-rasm. Shovqin qo‘shilgan audio signal

3. Fourier filtri algoritmi va natijalari.

Fourier algoritmi chastotaviy tahlilga asoslanadi. U signallarni vaqt domenidan chastota domeniga o‘tkazib, spektral komponentlar ko‘rinishida ifodalaydi. Fourier transformatsiyasining asosiy g'oyasi — har qanday murakkab signalni sinus va kosinus to‘lqinlar yig'indisi sifatida tasvirlash mumkinligidir [1]. Uning matematik ifodasi:

$$X(f) = \int_{-\infty}^{+\infty} x(t)e^{-j2\pi ft}dt \qquad (3)$$

va diskret holda:

$$X(k) = \sum_{n=0}^{N-1} x(n)e^{-j2\pi kn/N} \qquad (4)$$

Bu yerda x(n)— vaqt domenidagi signal, X(k)— uning chastotaviy spektri, N— namunalar soni.

Fourier transformatsiyasi yordamida signal spektri aniqlanadi va shovqin chastotalari filtrlanadi. Shundan so‘ng teskari Fourier transformatsiyasi (IFFT) orqali signal qayta tiklanadi [5]. Fourier algoritmi deterministik yondashuv bo‘lib, shovqinlarning chastota oralig'iga asoslanadi. Agar shovqin ma'lum chastotali diapazonda joylashgan bo‘lsa, u holda chastotaviy filtr yordamida bu komponentlar kesib tashlanadi. Tajribada Fourier filtri qo‘llanib, signal chastota domenida tahlil qilindi. Shovqin chastotalari aniqlangach, past chastotali (low-pass) va o‘tkazmaydigan (band-stop) filtrlar yordamida zararli komponentlar yo‘qotildi (3-rasm).



3-rasm. Fourier filtri orqali tozalangan signal

4. Kalman filtri algoritmi va natijalari.

Bundan farqli o‘laroq, Kalman filtri — ehtimollik asosidagi rekursiv baholash algoritmi bo‘lib, u vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi (no-statsionar) tizimlarda foydali signalni optimal tarzda aniqlaydi [3, 9]. Kalman filtrining matematik modeli ikki asosiy tenglamadan iborat: tizim tenglamasi va o‘lchov tenglamasi:

$$x(x_k = Ax_{k-1} + Bu_k + \omega_k \quad z_k = Hx_k + v_k \qquad (5)$$

Bu yerda:

x_k— Tizimning haqiqiy holati (signalning toza shakli),

z_k— kuzatilgan (shovqin) signal,

A— o‘tish matritsasi (tizim dinamikasini ifodalaydi),

B— boshqaruv matritsasi,

H— kuzatuv matritsasi,

ω_k va v_k tizim va o‘lchov shovqinlari, ular normal taqsimotga ega:

$$\omega_k \sim N(0, Q), \qquad v_k \sim N(0, R)$$

Kalman filtri o‘z mohiyatiga ko‘ra optimal bayesian baholovchi hisoblanadi, chunki u signal va shovqin ehtimolliklarini hisobga olib, minimal xatolik bilan natija beradi [4]. Shuning uchun u real vaqtli tizimlarda, ayniqsa nutqni qayta ishlash, GPS, radar va sensorli qurilmalarda keng qo‘llaniladi [9]. Tajribada Kalman filtri statistik modellashtirish orqali shovqindan ajratadi. U har bir vaqt bosqichida signalning oldingi holatini, o‘lchov natijasini va taxmin xatosini hisobga olib, optimal baho beradi. Natijada no-statsionar shovqinlarda ancha barqaror va toza chiqish signali hosil qilindi (4-rasm).



4-rasm. Kalman filtri orqali tozalangan yakuniy signal

5. Natijalarni taqqoslash va muhokama.

Ushbu tajriba orqali ikkala algoritmning samaradorligi bir xil sharoitda, bitta nutq audiosi ustida sinovdan o‘tkazildi. Tozalashdan oldingi va keyingi SNR qiymatlari, shuningdek MSE xatoliklari hisoblanadi va natijalar jadval shaklida taqqoslanadi (1-jadval):

1-jadval

Algoritm	SNR (dB)	MSE	Hisoblash vaqti (ms)
Asl signal (shovqinli)	8.2	0.042	—
Fourier filtri	14.7	0.018	12.3
Kalman filtri	16.9	0.011	28.6

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Kalman filtri SNR va MSE ko‘rsatkichlari bo‘yicha Fourierdan ustun turadi, ammo hisoblash murakkabligi yuqoriroq. Fourier filtri barqaror shovqinlarda tez ishlasa, Kalman filtri o‘zgaruvchan muhitlarda yuqori aniqlik beradi [7]. Shu sababli, ikkala algoritmni bir tizimda — gibrid (Fourier–Kalman) yondashuv sifatida qo‘llash istiqbollari ham tahlil qilinadi, bu esa real vaqtli nutqni qayta ishlash, ovozli aloqa va sun'iy intellekt asosidagi audio tizimlarda yanada yuqori sifatga erishish imkonini beradi [11, 12].

Xulosa.

Mazkur tadqiqot ishida audio signallarni shovqindan tozalashda Fourier va Kalman filtrlari asosidagi algoritmlarning samaradorligi taqqoslab o‘rganildi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Fourier filtri chastota domenida ishlash tufayli barqaror (stasionar) shovqinlarni tez va samarali kamaytirishga qodir. SNR qiymati 8.2 dB dan 14.7 dB gacha oshdi, MSE 0.042 dan 0.018 gacha kamaydi.

2. Kalman filtri vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan (no-statsionar) shovqinlarda adaptiv tarzda ishlab, yuqoriroq aniqlik berdi: SNR 16.9 dB, MSE 0.011 ga teng bo‘ldi. Biroq, hisoblash murakkabligi Fourierdan 2.3 baravar yuqori (28.6 ms vs 12.3 ms).

3. Fourier algoritmi signal spektrini tahlil qilishda tezkor natija bersa-da, vaqt va chastotani bir vaqtda kuzata olmaydi. Kalman filtri esa rekursiv baholash orqali signalning oldingi va hozirgi holatini birlashtirib, optimal natija beradi.

4. Gibrid yondashuv — Fourier va Kalman filtrlarini kombinatsiya qilish orqali ikkala algoritmning afzalliklarini birlashtirish mumkin: Fourier spektral shovqinlarni aniqlaydi, Kalman ularni vaqt bo‘yicha adaptiv tarzda yo‘qotadi.

Umumiy xulosada shuni ta'kidlash lozimki, real vaqtli audio tizimlarida — nutqni tanish, ovozli yordamchilar, telekommunikatsiya — tizim talablariga qarab mos filtr tanlash muhim. Agar signal barqaror bo‘lsa va tezlik muhim bo‘lsa, Fourier filtri; agar shovqin dinamik va sifat ustuvor bo‘lsa, Kalman filtri afzalroq. Kelajakda bu ikki algoritmni Deep Learning usullari bilan birlashtirib, avtomatik tarzda optimal filtr tanlash imkoniyati yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oppenheim A.V., Schafer R.W. Discrete-Time Signal Processing. - Pearson Education, 2010. - 1108 p.
2. Haykin S. Adaptive Filter Theory. - 5th ed. - Pearson, 2013. - 912 p.
3. Maybeck P.S. Stochastic Models, Estimation, and Control. - Vol. 1. - Academic Press, 1982. - 423 p.
4. MathWorks Documentation. Signal Processing Toolbox User's Guide. - The MathWorks Inc., 2023.

5. Rabiner L.R., Schafer R.W. Theory and Applications of Digital Speech Processing. - Prentice Hall, 2011. - 1056 p.
6. Boll S.F. Suppression of Acoustic Noise in Speech Using Spectral Subtraction // IEEE Transactions on Acoustics, Speech, and Signal Processing. - 1979. - Vol. 27, No. 2. - P. 113-120.
7. Simon D. Optimal State Estimation: Kalman, H-infinity, and Nonlinear Approaches. - Wiley-Interscience, 2006. - 552 p.
8. Usmonov M.E., Mamatov A.A. Raqamli signalni qayta ishlash asoslari. - Toshkent: TATU, 2019. - 256 b.
9. Tursunov A.S., To‘xtasinov M.R. MATLAB dasturida signallarni tahlil qilish amaliyoti. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020. - 184 b.

08.00.00 – ECONOMIC SCIENCES

* * *

08.00.00 - IQTISODIYOT FANLARI

* * *

08.00.00 – ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

TA'LIMGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSIYA – JAMIYATNING INTELLEKTUAL TARAQQIYOT POYDEVORI

Rizokulov Arslonkul
O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907193

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, inson kapitalini shakllantirishdagi roli, raqamli davrda ta'limga sarmoya kiritishning yangi mexanizmlari, global tajribalar hamda milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar keng yoritiladi. Shuningdek, ta'lim investitsiyalari orqali barqaror iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim investitsiyalari , inson kapitali, mehnat unumdorligi.*

Kirish.

So'nggi yillarda dunyo mamlakatlari rivojlanish modelida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Endi davlatlar raqobati **yer osti boyliklari** bilan emas, balki **inson kapitali, ta'lim sifati, innovatsion muhit, ilmiy salohiyat** bilan belgilanmoqda. Shu bois ko'plab davlatlar budjet xarajatlarida ta'limga ajratilgan ulushni muttasil oshirmoqda. Chunki ta'limga yo'naltirilgan sarmoya – qisqa muddatda xarajatdek tuyulsa-da, uzun muddatda davlat rivojlanishining strategik poydevorini yaratadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'limga sarmoya kiritish:

- iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi,
- ijtimoiy tafovutlarni kamaytiradi,
- mehnat bozori samaradorligini oshiradi,
- innovatsion texnologiyalarni tez joriy etishga yordam beradi,
- fuqarolarning farovonlik darajasini oshiradi.

Demak, ta'limga investitsiya kiritish – bu **kelajakni bugundan barpo etish**dir.

1. Ta'limga investitsiyaning nazariy asoslari

Ta'lim investitsiyasi iqtisodiyot fanida "inson kapitaliga investitsiya" tushunchasi bilan bog'liq. Nobel mukofoti sohiblari G. Bekker, R. Solou, T. Shultslar ushbu nazariyaning asoschilaridir. Ularning fikricha, inson kapitaliga kiritilgan sarmoya jamiyatning eng yuqori rentabelligiga ega investitsiya turi hisoblanadi.

Inson kapitali quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bilim va ko'nikmalar,
- kasbiy kompetensiyalar,
- kreativ fikrlash,

- sog‘liq va mehnat qobiliyati,
- innovatsion salohiyat.

Mazkur kapitalni shakllantirishning bosh manbai esa – **sifatli ta’limdir**.

2. Ta’lim investitsiyasining iqtisodiy samaradorligi

2.1. Mehnat unumdorligining oshishi

Ta’lim olgan kadrlar yuqori texnologiyalarni tez o‘zlashtiradi, murakkab jarayonlarni boshqaradi, muammolarni tez hal qiladi. Bu esa sanoat, xizmatlar, IT, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda mehnat unumdorligini keskin oshiradi.

2.2. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish

Yuqori malakali yoshlar:

- startaplar yaratadi,
- yangi texnologiyalarni joriy etadi,
- ilmiy tadqiqotlarni kuchaytiradi.

Bu jarayon iqtisodiyotning innovatsion sektori ulushini oshiradi.

2.3. Yangi ish o‘rinlari yaratilishi

Ta’lim investitsiyasi bilan parallel ravishda:

- yangi maktablar,
- universitetlar,
- ilmiy markazlar,
- texnoparklar barpo etiladi.

Bu esa yuzlab yangi ish o‘rinlari yaratadi.

2.4. Davlat budjetiga qaytuvchi foyda

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- o‘rta ta’limga investitsiyaning qaytimi – 1:4,
- oliy ta’limga investitsiyaning qaytimi – 1:6 yoki undan yuqori.

Demak, ta’limga sarflangan har bir 1 dollar kelajakda kamida 6 dollar daromad keltiradi.

3. Ta’lim investitsiyalarining ijtimoiy samaralari

3.1. Ijtimoiy barqarorlik

Bilimli jamiyat jinoyatchilikka kam moyil bo‘ladi, mehnat madaniyati va fuqarolik mas’uliyati kuchayadi.

3.2. Sog‘liqni saqlash xarajatlarining kamayishi

Ta’limli inson sog‘lom turmush tarziga rioya qiladi, bu esa tibbiy xarajatlarni kamaytiradi.

3.3. Gender tengligini ta’minlash

Ta’lim olgan ayollar jamiyatda faol bo‘ladi, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

3.4. Madaniy va ma’naviy yuksalish

Sifatli ta’lim:

- kitobxonlik,
- madaniyat,
- san’at,
- ma’naviy qadriyatlarning oshishiga xizmat qiladi.

4. Ta’limga investitsiya yo‘nalishlari

4.1. Infratuzilmaga sarmoya

- zamonaviy maktablar qurish,
- universitet kampuslari,

- raqamli laboratoriyalar,
- texnoparklar.

4.2. O‘qituvchilar malakasiga investitsiya

O‘qituvchi – ta’lim tizimining yuragi. Finlandiya, Koreya, Yaponiya tajribasida o‘qituvchiga investitsiya – eng ustuvor vazifa.

4.3. Didaktik resurslarga sarmoya

- elektron darsliklar,
- AR/VR texnologiyalari,
- sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari.

4.4. Ta’lim grantlari va stipendiyalar

Yoshlarni rag‘batlantirish ta’lim investitsiyasining muhim qismi hisoblanadi.

4.5. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar

Universitetlar qoshida ilmiy markazlar tashkil etilishi dolzarbdir.

5. Xorij tajribasi: O‘rganishga arziydigan modellari

Finlandiya – dunyoning eng muvaffaqiyatli ta’lim tizimi

- stresssiz baholash,
- o‘quvchi markazli yondashuv,
- o‘qituvchilar oliy sifatli tayyorlanadi.

Janubiy Koreya – investitsiya natijasida “iqtisodiy mo‘jiza”

1950-yillar qashshoqligi ortidan ta’limga kuchli sarmoya natijasida Koreya bugun texnologik davlatga aylandi.

Singapur – “aqliy kapitalga qurilgan davlat” modeli

- qat’iy sifat nazorati,
- STEM ga ustuvor yondashuv,
- uzluksiz ta’lim.

Germaniya – dual ta’lim modeli

Ishlab chiqarish + o‘qish integratsiyasi mehnat bozoriga juda mos.

6. Raqamli davrda ta’limga investitsiyaning yangi yo‘nalishlari

6.1. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim

AI turli talabalar uchun individual ta’lim yo‘nalishini yaratadi.

6.2. Metaverse ta’lim

Virtual laboratoriyalar, 3D ta’lim muhiti – kelajakning asosiy trendi.

6.3. Blokcheyn asosidagi diplomlar

Bu tizim korrupsiya, soxtalik va byurokratiyani bartaraf etadi.

7. Muammolar va mavjud to‘siqlar

- infratuzilmaning notekisligi,
- malakali pedagoglarga ehtiyoj,
- ilm-fanga ajratilgan mablag‘ning kamligi,
- ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzilish.

8. Takliflar

1. **Ta’lim obligatsiyalarini joriy etish.** Aholi va xususiy sektor ta’lim loyihalariga sarmoya kiritishi mumkin.
2. **Universitetlarda “Raqamli laboratoriyalar”ni kengaytirish.** AI, robototexnika, VR, biotexnologiya bo‘yicha markazlar.
3. **Pedagoglar uchun xalqaro sertifikatlash dasturlarini yaratish.**

4. **Xalqaro universitetlar bilan qo‘shma fakultetlar ochish.**
5. **Hududlarda ta’lim imkoniyatlarini tenglashtirish.** Mobil maktablar, onlayn ta’lim hublari.
6. **Fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish.** Talabalar amaliyotini real texnoparklarga bog‘lash.
7. **“Bir o‘qituvchi – bir startap” dasturi.** Har bir pedagogning innovatsion g‘oyasini moliyalashtirish.

Xulosa.

Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiya – millatning eng katta boyligiga, ya’ni inson kapitaliga kiritilgan sarmoyadir. Bu investitsiya jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy o‘sishi, siyosiy mustahkamligi va ma’naviy kamoloti uchun xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlar bunga juda erta e’tibor qaratgani bois bugungi kunda texnologiya, ilm-fan va iqtisodiyotda peshqadamlikni qo‘lga kiritgan.

Shunday ekan, O‘zbekiston uchun ham ta’limga investitsiyani strategik ustuvorlik sifatida belgilash – ertangi kunning eng muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Becker, G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
2. Schultz, T. Investment in Human Capital. – American Economic Review, 1961.
3. Solow, R. Growth Theory: An Exposition. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
4. Hanushek, E., Woessmann, L. The Knowledge Capital of Nations. – MIT Press, 2015.
5. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. – Paris, 2023.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris, 2022.
7. World Bank. The Human Capital Project. – Washington, D.C., 2020.
8. Mincer, J. Schooling, Experience, and Earnings. – New York: Columbia University Press, 1974.
9. Asian Development Bank. Education and Human Development Report, 2021.
10. Finland Ministry of Education and Culture. Finnish Education System Overview, 2020.
11. Singapore Ministry of Education. SkillsFuture and Lifelong Learning Strategy, 2022.
12. Korea Education Development Institute (KEDI). Education Policy Review, 2021.
13. Karimov A., Jo‘rayev O. Ta’lim iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
14. Xudoyberdiyev R. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
15. Mamatqulov M. Oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya. – Toshkent: Oliy ta’lim agentligi risolalari, 2023.

10.00.00 – PHILOLOGICAL SCIENCES

* * *

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

* * *

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

A COMPARATIVE SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF IMPRECATIONS VIA THEORETICAL FRAMEWORKS IN UZBEK, RUSSIAN, AND ENGLISH SOCIETIES

Raykhona Gulomova
Senior teacher, UzSWLU
E-mail: r.gulomova@uzswlu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907215

Abstract. *This paper examines the sociolinguistic implications of imprecations (curses) as a discursive activity rooted in cultural norms, gender relations, and power dynamics. This study conducts a comprehensive analysis of the theoretical contributions of William Labov, Erving Goffman, Deborah Tannen, Janet Holmes, Michel Foucault, Pierre Bourdieu, and Judith Butler to assess the role of curses as manifestations of identity, resistance, and social control in Uzbek, Russian, and English-speaking contexts. Employing a comparative sociolinguistic approach, it illustrates the functioning of curses across social strata, genders, and communicative circumstances. The results highlight the performative, symbolic, and stratifying roles of imprecations, while also showing how they can be used to reject and reinforce social hierarchies.*

Key words: *Imprecations, sociolinguistics, performativity, discourse analysis, gender and language, power relations, Labov, Goffman, Tannen, Holmes, Foucault, Bourdieu, Butler, Uzbek society, Russian profanity, English curses, linguistic capital, variationist theory, politeness theory, cultural pragmatics.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qarg'ish so'zlarining jamiyatdagi o'rni, ularning madaniy qadriyatlar, jinsga oid rollari va ijtimoiy kuch tuzilmalaridagi ifodasi sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Mualliflar William Labov, Erving Goffman, Deborah Tannen, Janet Holmes, Michel Foucault, Pierre Bourdieu va Judith Butlerning nazariy qarashlarini birlashtirgan holda, qarg'ishlar qanday qilib individuallikni ifodalash, ijtimoiy nazorat qilish va norozilik bildirish vositasi sifatida ishlatilishini o'rganadi. O'zbek, rus va ingliz tilli jamiyatlar misolida taqqoslangan tahlil asosida qarg'ishlarning turli ijtimoiy qatlamlar, jins vakillari va suhbat vaziyatlaridagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari qarg'ishlarning ijtimoiy identitetni ko'rsatish, norozilikni ifodalash va mavjud ierarxik tuzilmalarni mustahkamlash yoki ularga qarshi chiqishdagi rolini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Qarg'ishlar, sotsiolingvistika, performativlik, diskurs tahlili, gender va til, ijtimoiy kuch munosabatlari, Labov, Goffman, Tannen, Holmes, Foucault, Bourdieu, Butler, o'zbek jamiyati, rus so'kinishlari, inglizcha so'kinishlar, lingvistik kapital, variatsion nazariya, xushmuomalalik nazariyasi, madaniy pragmatika.*

Introduction.

Language and society are mutually constitutive constructions, with quotidian expressions—particularly imprecations—exposing entrenched cultural ideas and power disparities. Imprecations, frequently regarded as vulgar or emotionally impulsive expressions, are, in reality, socially charged speech acts that reflect, negotiate, and challenge cultural norms. They serve as venues for gender expression, class signalling, methods of civility, and rhetorical resistance. Although they carry social stigma, curses provide a rich area for sociolinguistic analysis, especially when explored through various theoretical frameworks that consider both structure and agency.

This study seeks to elucidate the function of imprecations among three linguistically and culturally diverse societies—Uzbek, Russian, and English—utilizing a comparative theoretical framework. It integrates and critically assesses the contributions of prominent linguistic and sociopolitical theorists, such as Labov, Goffman, Tannen, Holmes, Foucault, Bourdieu, and Butler, viewing them not as discrete viewpoints but as converging frameworks for comprehending the operation of imprecations at the intersection of language, power, and identity.

Literature Review.

Labov's (1972) variationist sociolinguistics provides an empirical basis by linking linguistic choices to social stratification, but Goffman's (1967) face theory redirects attention to the interactional level, where imprecations can serve as both face-threatening and face-saving actions. Labov's research on New York department store clerks and African American Vernacular English (AAVE) illustrated the social stratification of language forms and their correlation with class identification. His paradigm posits that profanity serves as a class indicator, differentiating informal working-class communication from the refined language of elite circles. In Russian society, the frequent usage of mat by working-class men serves as both an identifying symbol and a means of social bonding. This corresponds with Labov’s assertion that nonstandard speech forms can function as means of in-group solidarity while being marginalized in prevailing discourses.

Goffman's interactional model enhances Labov's work by providing a micro-level perspective on social interaction. Curses, according to Goffman, can be face-threatening acts (FTAs), especially in formal situations or when people of different social statuses are interacting. But they can also help people keep their face in peer groups or as funny ways to ease the situation. In English-speaking cultures, expressions like "bloody hell" or "oh fuck" can be used to let out emotions or to signal that something is wrong, depending on how they sound and what they mean. Goffman's theory is especially beneficial for analyzing how speakers navigate social roles and identity through the deliberate employment or evasion of imprecations.

Tannen's (1990) research on gendered discourse redirects the conversation towards the influence of gender socialization on conversational style. Women, socialized to speak in ways that develop relationships, may avoid swearing to stay nice and avoid being judged negatively. Tannen's ideas are especially important in Uzbek culture, where women are typically punished for showing anger openly. Male conversation, on the other hand, allows for more direct and hostile vocabulary, including swearing. Tannen also shows, nevertheless, that not using imprecations can be a strategic choice instead of a lack of expressive breadth. For example,

ladies who understand English might use softer curses like "crap" or "heck" to keep the group together without breaking politeness rules.

Janet Holmes (1995) elaborates on this by examining politeness techniques and the impact of gendered norms on language usage. She discovers that women's curses are frequently encoded as indirect, sardonic, or amusing to circumvent explicit confrontation. In Uzbek, older ladies often use phrases like voy dodim or dod vey instead of stronger curses. Holmes' approach shows how women keep the peace in society by choosing their words carefully, and how even their curses are subject to societal norms. Her work is crucial in demonstrating that even when women curse, they frequently do so in manners that alleviate potential social infractions.

Foucault (1978), departing from interactional and variationist traditions, reconceptualizes language as a manifestation of power-knowledge. Imprecations are not merely emotional outbursts; they constitute components of broader discursive frameworks. Foucault asserts that profanity subverts normative structures and highlights the artificiality of polite discourse. In Soviet and post-Soviet Russia, the repression and covert dissemination of mat illustrate the mechanisms of authority through the regulation of speech. Foucault's idea of speech as an arena of struggle is shown by the usage of curse words in political protests or countercultural art, where they shake up dominant narratives.

Bourdieu (1991) expands upon Foucault’s theory by presenting the concept of linguistic capital. In Bourdieu's view, curses frequently have little symbolic capital in formal areas like education, government, or religion. In informal settings like gang culture, internet communities, and rap music, though, they can have a lot of symbolic meaning. His concept of habitus elucidates why speakers from diverse origins employ imprecations variably and interpret their usage through ingrained social dispositions. In Uzbekistan, the utilization of religious imprecations by rural men exemplifies a habitus influenced by patriarchal norms and conventional power frameworks.

Judith Butler (1997), extending the theory of performativity, argues that language does not merely reflect identity—it creates it. Imprecations, as performative utterances, can either reinforce or challenge gender and social roles. Butler’s theory helps explain why reappropriated slurs like “bitch” or “slut” in English feminist discourse function as acts of resistance. In Uzbek society, where gender roles are more rigid, the performative power of imprecations is more constrained, though not absent. Social media platforms provide a rare space where Uzbek women occasionally use imprecations to critique patriarchal norms, thus enacting Butlerian resistance through speech.

When you look at all of these frameworks together, you can see the many sides of the sociolinguistic reality of imprecations. Labov and Bourdieu offer insights into structural hierarchies; Goffman, Tannen, and Holmes shed light on interpersonal dynamics; and Foucault, Butler, and Bourdieu foreground the ideological and performative dimensions of cursing. These perspectives are not mutually exclusive but complementary, each revealing a different facet of how imprecations function within and against systems of social control.

Methodology.

This research utilizes a comparative qualitative and quantitative sociolinguistic methodology. It combines ethnographic fieldwork, corpus analysis, and semi-structured interviews with native speakers from Uzbekistan, Russia, and English-speaking nations (the United Kingdom, the United States, and Canada). From 2024 to 2025, the data were gathered over a period of six months. There were 60 native speakers from each society, 20 men, 20

women, and 20 non-binary/younger informal speakers, aged 18 to 60, who were chosen from both rural and urban regions. They were asked to talk about and rate how suitable, common, and emotionally charged common insults are in their own language. We also looked at natural speech recordings and digital information (such comments on social media, YouTube, and TV shows) to see how curses work in diverse situations.

The curses were put into groups by:

- The speaker's gender - Their social status/class
- Emotional intent (anger, solidarity, humour, etc.)
- How prohibited it is (mild, moderate, or extreme)

A statistical chart was employed to compare the prevalence and perceived acceptability of curses among the three societies.

Results.

The analysis yielded several trends, visualized in the charts below:

Table 1: Frequency of Imprecation Use (Mean Instances per 1,000 Words)

Language/Society	Male Speakers	Female Speakers	Youth (18–30)
Uzbek	7.5	2.3	5.1
Russian	12.8	6.2	14.5
English	9.7	6.8	11.1

Figure 1: Appropriateness Ratings of Imprecations in Formal Settings (Scale: 1–5)

(Uzbek: Mean = 1.2; Russian = 2.1; English = 2.8)

Table 2: Most Commonly Reported Emotional Functions of Imprecations (% of total usage)

Emotion	Uzbek (%)	Russian (%)	English (%)
Anger	62	55	45
Humor	12	21	30
Group Bonding	8	14	15
Shock Value	10	5	6
Protest	2	3	4

Qualitative findings revealed that in Uzbekistan, religiously based imprecations (“Alloh ursin”, “la’nat bo‘lsin”) were employed cautiously, predominantly by elderly males or rural speakers. Women usually didn't use this kind of language because of strict social rules against it. Russian speakers used profanity the most and the most strongly, especially in informal networks where men were in charge. In English-speaking countries, gender disparities were less prominent, and imprecations were employed more flexibly for humor, irony, and empowerment.

Discussion.

By synthesizing various theoretical perspectives, the study demonstrates that imprecations are complex speech acts whose significance and effects are contingent upon context. Labov and Bourdieu focus on structural restrictions like class, habitus, and symbolic capital. On the other hand, Goffman, Tannen, and Holmes look at the micro-level pragmatics of swearing in relationships. On the other hand, Foucault and Butler focus on the political and performative power of imprecations.

In Uzbek society, the high level of linguistic conservatism makes it hard for imprecations to be subversive. However, digital spaces are starting to change this. Russian society, influenced by historical oppression and expressive defiance, illustrates both the structural and subversive

aspects of imprecations. In English-speaking settings, imprecations serve as both means of authority and instruments of resistance.

The comparison also shows how imprecations are cultural artifacts that show what a society allows, forbids, or reclaims through language. In patriarchal cultures like Uzbekistan, curses strengthen gender roles; in Russia, they define group boundaries; and in English communities, they can upset hierarchies, especially when they are used in a new way.

Conclusion.

Imprecations are not arbitrary verbal expressions; rather, they are socially structured and ideologically infused language actions. By synthesizing the works of Labov, Goffman, Tannen, Holmes, Foucault, Bourdieu, and Butler, this study demonstrates that cursing serves as both a mirror and a mechanism of social structure. Labov and Bourdieu elucidate the demographics and motivations behind cursing, whereas Goffman, Tannen, and Holmes elucidate the mechanics of curses within social interactions. Foucault and Butler, on the other hand, remind us that curses are never neutral; they can either support or fight against dominant discourses. In all three communities examined, imprecations continue to serve as significant indicators of identity, gender, and resistance. Their research provides significant insights into the ways language both restricts and enables human expression.

REFERENCES

1. Bourdieu, P. (1991). Language and Symbolic Power. Harvard University Press.
2. Butler, J. (1997). Excitable Speech: A Politics of the Performative. Routledge.
3. Foucault, M. (1978). The History of Sexuality: Volume I. Pantheon.
4. Goffman, E. (1967). Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. Anchor Books.
5. Holmes, J. (1995). Women, Men and Politeness. Longman.
6. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns. University of Pennsylvania Press.
7. Tannen, D. (1990). You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. Ballantine Books.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MOLIYAVIY-IQTISODIY ATAMALAR VERBALIZATORLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Nasibboyeva Mukarrama Salimjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mutaxassislik, ijtimoiy - gumanitar va aniq fanlar
kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: mukarrama79@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17921546

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida moliyaviy-iqtisodiy atamalarni ifodalovchi verbalizatorlarning tarkibi, miqyosi va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Atamalar til tizimidagi terminologik birliklar sifatida qaralib, ularning konseptual va nominativ funksiyalari, semantik tarkibi va strukturaviy modeli qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy tafakkur, til va madaniyat o‘zaro aloqasini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *verbalizator, moliyaviy-iqtisodiy atama, konseptual maydon, nominativ birlik, leksik-semantik tahlil, til va tafakkur, struktur model.*

Kirish.

Zamonaviy tilshunoslikda iqtisodiy mazmunga ega terminlar, ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy atamalar, kommunikativ vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy soha tilining rivojlanishi iqtisodiy tafakkur, jamiyatdagi sotsial-iqtisodiy jarayonlar va global integratsiya jarayonlarining tilga aks etishi bilan bevosita bog‘liqdir. Moliyaviy-iqtisodiy atamalar faqatgina leksik birlik emas, balki konseptual struktura va ijtimoiy ongda shakllangan iqtisodiy bilimlarning lingvistik ifodasidir.

Ingliz tili global iqtisodiy diskursda ustun mavqega ega bo‘lganligi sababli, undagi moliyaviy atamalar xalqaro standart sifatida faol ishlatilmoqda. Bu esa ularni boshqa tillarga, xususan o‘zbek tiliga to‘g‘ri, aniq va madaniy mos tarzda o‘girish zaruratini tug‘diradi. Ayniqsa, atamalarning verbalizatsiyasi, ya’ni til orqali konseptual mazmunning ifodalanishi, ularning semantik to‘liqligi va kommunikativ aniqligini belgilaydi.

Verbalizatorlar odatda, atama va tushunchalarni nomlovchi til birliklari bo‘lib, ular orqali iqtisodiy kontseptlar ifodalanadi va kommunikatsiya amalga oshiriladi. Har bir til ushbu verbalizatorlarni o‘zining morfologik, sintaktik va semantik tizimi asosida shakllantiradi. Ingliz tilidagi verbalizatorlar ko‘pincha qisqa, morfologik jihatdan oddiy va qat’iy semantik chegaralangan bo‘lsa, o‘zbek tilidagilari murakkab, ko‘p hollarda birikmaviy shaklga ega va madaniy-axloqiy yuklama bilan boyitilgan.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida moliyaviy-iqtisodiy atamalarni ifodalovchi verbalizatorlar qiyosiy tahlil qilinadi. Ularning tarkibi, semantik tuzilmasi, ishlatilish konteksti va konseptual asoslari o‘rganiladi. Maqolaning maqsadi – ikki tilda verbalizatorlar orqali iqtisodiy tafakkurning lingvistik ifodasini aniqlash, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsatishdir.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining til siyosatiga muvofiq holda o‘zbek tilining ilmiy-uslubiy boyligiga hissa qo‘shish, milliy iqtisodiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga ilmiy asos yaratish bilan bir qatorda, tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik sohalariga ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodlar. Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi moliyaviy-iqtisodiy atamalarning verbalizatorlarini lingvistik, kognitiv va madaniy kontekstlarda chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda bir nechta zamonaviy tilshunoslik metodlari kompleks qo‘llanildi. Tanlangan metodlar orqali verbalizatorlarning semantik, struktural va funksional xususiyatlari aniqlab berildi.

Lingvokognitiv tahlil usuli – mazkur yondashuv verbalizatorlar orqali ifodalangan tushunchalarning inson tafakkuridagi aksini aniqlashga xizmat qildi. Bu metod yordamida iqtisodiy terminlarning konseptual asoslari, ya’ni tushunchaviy maydonlari (conceptual domains) va ularning til vositasida qanday shakllanishi tahlil qilindi. Masalan, “**qarz”, “kapital”, “aktiv**” kabi atamalar orqali moliyaviy dunyoqarash qanday tashkil topgani o‘rganildi.

Ingliz va o‘zbek tillarida qiyosiy-lingvistik tahlillar odtada, bir xil iqtisodiy kontseptlarni ifodalovchi verbalizatorlar o‘zaro taqqoslandi. Ularning strukturaviy tuzilmalari, morfologik xususiyatlari, semantik yuki va qo‘llanilish tezligi solishtirildi. Bu metod orqali ikki tildagi iqtisodiy tafakkur va til imkoniyatlaridagi tafovutlar ochib berildi.

Leksik-semantik tahlil esa verbalizatorlarning ichki leksik tuzilmasi, ularning sinonimlik, antonimlik, polisemiyaviy yoki monosemantik xususiyatlari tahlil qiladi. Atamalarning aniq yoki umumiy semantik chegaralari, konnotativ va denotativ qatlamlari aniqlashtirildi. Bu tahlil iqtisodiy terminlarning ilmiylik darajasini baholash imkonini berdi.

Diskursiv tahlilga kelsak, moliyaviy matnlarda verbalizatorlarning kontekstda qanday qo‘llanilishini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ingliz va o‘zbek tilidagi iqtisodiy maqolalar, bank hisobotlari, qonunchilik hujjatlari va ilmiy asarlardan olingan materiallar asosida verbalizatorlarning funksional yuklamasi va ularning kommunikativ qiymati tahlil qilindi.

Corpus-analiz elementlarining tanlangan matnlardagi atamalarni aniqlanishida elektron lug‘atlar, soha terminologiyasi va iqtisodiy korpuslardan foydalanildi. Bu yondashuv orqali verbalizatorlarning real ishlatilish chastotasi va ularning barqarorlik darajasi aniqlashga erishiladi.

Madaniy-semantik yondashuvning iqtisodiy verbalizatorlari madaniy konnotatsiyalari va tarixiy shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi “*halol rizq”, “baraka”, “tejamkorlik*” kabi iqtisodiy mazmunga ega iboralar xalqning iqtisodiy tafakkuri bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilida nufuzli iqtisodiy nashrlar (“The Economist”, “Financial Times”, “Forbes”) hamda o‘zbek tilidagi iqtisodiy va rasmiy-huquqiy matnlar, bank va soliq qo‘mitalarining hisobotlari, ilmiy maqolalar, lug‘atlar va iqtisodiy atamalar ro‘yxati asos qilib olindi. Ushbu materiallar asosida tanlangan verbalizatorlar lingvistik jihatdan tizimlashtirildi va qiyosiy tahlil qilindi.

Umuman olganda, tadqiqotda nazariy va amaliy lingvistik metodlarning uyg‘unligi saqlanib, verbalizatorlar maydonining o‘ziga xos xususiyatlarini har ikki tilda mukammal tahlil qilishga erishildi.

Natijalar: Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillaridagi moliyaviy-iqtisodiy atamalarni ifodalovchi verbalizatorlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarkibiy xususiyatlari, semantik yuklamalari va konseptual asoslari aniqlashtirildi. Tadqiqot quyidagi asosiy natijalarni berdi:

Verbalizatorlar konseptual maydonning nomlovchi yadrosi sifatida har ikkala tilda ham iqtisodiy tafakkurning asosiy tushunchalarini ifodalashda xizmat qiladi. Ular orqali nafaqat iqtisodiy obyektlar, balki jarayonlar, holatlar va natijalar ham ifodalanadi (masalan, ingliz tilida *“inflation”*, *“credit risk”*; o‘zbek tilida *“inflyatsiya”*, *“kredit xatari”*). Ingliz tilidagi verbalizatorlar esa aniq, qisqa va texnik xarakterga ega bo’lib, ular, odatda, bir so‘zdan iborat bo’lib, murakkab iqtisodiy tushunchalarni ixcham shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan: *asset, liability, bond, equity, debt*. Ularning semantik chegarasi qat’iy, ko‘p hollarda bir ma’noli va maxsus kontekstdagi qo‘llanilishiga moslashgan.

O‘zbek tilidagi verbalizatorlar esa ko‘pincha ko‘p so‘zli iboralar ko‘rinishida shakllangan bo‘lib, semantik jihatdan umumiyroq, lekin konnotativ yuklamaga boydir. Masalan: *moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, sarmoyaviy xavf, qarz majburiyati* kabi misollarini kelirish mumkin.

Verbalizatorlarning semantik tuzilmasi ikki tilda ham muhim farqlarga ega: ingliz tilida ular texnik va normativ semantikani ko‘proq aks ettirsa, o‘zbek tilida aksariyat hollarda umumiy, ko‘chma yoki ijtimoiy-ma’naviy qatlamlar bilan boyitilgan. Bu tafovutlar tarjimada ma’no yo‘qotilishiga yoki noto‘g‘ri interpretatsiyaga olib kelishi mumkin.

Terminlarning shakllanish usullari ham farqlidir: ingliz tilida asosiy verbalizatorlar lotin yoki yunon ildizlaridan olingan so‘zlardan tashkil topgan bo‘lsa, o‘zbek tilida ularning ekvivalentlari ko‘pincha kalkalash, transliteratsiya yoki milliy leksik vositalar bilan ifodalanadi.

Verbalizatorlarning strukturaviy qurilishi ham farq qiladi: ingliz tilida “compound nouns” (masalan, *cash flow, market share*) ko‘p qo‘llanilsa, o‘zbek tilida birikmali birliklar (masalan, *naqd pul oqimi, bozor ulushi*) asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan iqtisodiy matnlar (ilmiy, publitsistik va rasmiy) shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida atamalar ko‘proq formallashtirilgan, o‘zbek tilida esa ba’zida sinonimik parallel shakllar mavjud bo‘lib, bu normativlik darajasining pastligidan dalolat beradi. Masalan, *profit* atamasi o‘zbek tilida *foyda, daromad, sof foyda* tarzida turli kontekstlarda qo‘llaniladi.

Kognitiv jihatdan, ingliz tilidagi verbalizatorlar aniq iqtisodiy modelga bog‘langan, ularning ishlatilishi keng ma’lumotlar bazasi va global tajribaga tayanadi. O‘zbek tilida esa bu atamalar ko‘proq tarjima asosida shakllangan bo‘lib, milliy kognitiv xaritaga to‘liq singib ketmagan holatlar mavjud.

Madaniy jihatdan, o‘zbek tilidagi verbalizatorlarning ayrimlari xalqona mazmun bilan boyitilgan. Masalan, “**baraka”, “halol rizq”, “tejamkorlik**” kabi birliklar ham iqtisodiy diskursga xos semantik elementlar sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, har ikkala tilda ham verbalizatorlar iqtisodiy tafakkurning asosiy vositasi bo‘lib, ularning o‘zaro taqqoslanishi lingvistik tafovutlarni emas, balki madaniy va konseptual tafakkurdagi farqlarni ham ko‘rsatdi. Bu esa terminlar tarjimasini faqat leksik darajada emas, balki chuqur madaniy-lingvistik tahlil asosida amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Munozara. Olingan tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarida moliyaviy-iqtisodiy atamalarning verbalizatsiyasi mazkur ikki tilning lingvistik tuzilmasi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va madaniy asoslaridagi farqlarni yaqqol namoyon qilganini ko‘rsatadi. Verbalizatorlar konseptual maydonning nomlovchi markazi bo‘lib, ularning tarkibi va qo‘llanilishi har bir tilning iqtisodiy tafakkur modeli bilan bevosita bog‘liqdir.

E. Wüsterning klassik terminologik nazariyasiga ko‘ra, har bir termin qat’iy belgilangan semantik chegaraga, normativ shaklga va aniq kontekstga ega bo‘lishi kerak. Ingliz tilidagi moliyaviy verbalizatorlar bu talabga yuqori darajada javob beradi. Masalan, “**asset”, “equity”, “liability**” atamalari muayyan iqtisodiy tushunchani aniq va ixtisoslashtirilgan tarzda ifodalaydi. Bu holat ingliz tilida terminlarning konseptual izchilligi va barqarorligi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Aksincha, o‘zbek tilida verbalizatorlar shakllanishi va qo‘llanilishi jarayonida bir necha turli omillar: milliy tafakkur, xalqona ifodalar, tarjima mexanizmlari, normativlik darajasi – ta’sirida yuzaga keladi. Shuning uchun ham “**kapital”, “foyda”, “sarmoya”** kabi verbalizatorlar ayrim hollarda konnotativ va umumiy semantikaga ega bo‘lib, ularning qat’iy iqtisodiy ta’rifi yo‘qligi kuzatiladi. Bu holat S.V. Grinev tomonidan ilgari surilgan dinamik terminologik tizim nazariyasiga mos keladi, ya’ni terminlar doimiy o‘zgaruvchan va kontekstualdir.

Cabre va Sagerlarning kommunikativ yondashuvi verbalizatorlarni faqat tushunchaviy birlik emas, balki kommunikatsion vosita sifatida ko‘radi. Bu yondashuvga ko‘ra, verbalizatorlar turli nutq uslublarida, matn janrlarida va sotsial kontekstlarda turlicha semantik yuklama bilan ishlatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida verbalizatorlar rasmiy va texnik matnlarda qat’iy ma’noga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida ular ko‘proq uslubiy moslashuvga duchor bo‘ladi. Masalan, “**debt**” atamasi o‘zbek tilida kontekstga qarab “*qarz”, “kredit majburiyati”, “moliyaviy yuklama*” tarzida turli uslubiy ko‘rinishlarda ishlatiladi.

Lingvomadaniy aspektdan qaralganda, o‘zbek tilidagi iqtisodiy verbalizatorlarning ayrimlari xalq tafakkuridan olingan iboralar va qadriyatlar asosida shakllangan. Masalan, “**halol mehnat”, “baraka”, “tejamkorlik**” kabi tushunchalar ham iqtisodiy diskursda faol ishlatiladi, garchi ular klassik terminlar sifatida qaralmasa ham. Bu esa V.N. Teliyaning lingvomadaniy semantika haqidagi nazariy qarashlarini eslatadi , ya’ni til orqali madaniyatning aks etishi.

Tarjima amaliyoti nuqtayi nazaridan, ko‘plab moliyaviy atamalar o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilingan bo‘lib, ular semantik jihatdan ba’zan mos, ba’zan esa noto‘g‘ri yoki umumlashtirilgan shaklda ifodalanadi. Masalan, “capital gains” atamasi ko‘pincha “kapital foyda” deb tarjima qilinadi, lekin uning iqtisodiy-ma’muriy ma’nosi ancha torroq va maxsus kontekstga ega. Bu esa tarjimada nafaqat semantik moslik, balki konseptual muvofiqlikni ham ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, verbalizatorlar orqali iqtisodiy kontseptlarni ifodalash jarayoni har bir tilda mavjud kognitiv xarita asosida amalga oshadi. Ingliz tilida bu xarita xalqaro iqtisodiy modelga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida u milliy iqtisodiy amaliyot, madaniy qadriyatlar va soddalashtirilgan ifoda vositalariga tayanadi. Bu farq ularning verbalizatsiya modeliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillarida verbalizatorlar orqali moliyaviy-iqtisodiy kontseptlarning ifodalanishi ko‘p jihatdan til tizimi, tafakkur modeli va madaniyat bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Ushbu farqlarni aniqlash va chuqur tahlil qilish terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish, o‘zbek iqtisodiy tilini boyitish hamda ilmiy uslubiy asos yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi moliyaviy-iqtisodiy atamalarni ifodalovchi verbalizatorlarning lingvistik xususiyatlari chuqur va qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari til, tafakkur va madaniyat uchligini birlashtirgan murakkab lingvistik tizimni ochib berdi. Verbalizatorlar har ikki tilda iqtisodiy kontseptlarni nomlashda markaziy rol o‘ynab, o‘zining leksik-semantik, strukturaviy va uslubiy xususiyatlari bilan farqlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki: ingliz tilidagi verbalizatorlar global iqtisodiy tizimda barqaror shakllangan, qat’iy semantik chegaraga ega, texnik xarakterli terminlardir. Ular xalqaro normativlik talablariga javob beradi va ilmiy-rasmiy diskurslarda yuqori darajadagi aniqlikni ta’minlaydi.

O‘zbek tilidagi verbalizatorlar esa milliy tafakkur, xalqona ifodalar va tarjima jarayonlari orqali shakllangan bo‘lib, semantik jihatdan ko‘proq konnotativlikka ega. Ularning normativlik darajasi hali shakllanish bosqichida bo‘lib, ko‘p hollarda sinonimik yoki umumiy ifodalar bilan almashtiriladi.

Verbalizatorlar orqali iqtisodiy tafakkur ifodalanadi, ya’ni har bir til o‘z iqtisodiy kontseptlarini nomlashda til tizimi, madaniy qadriyatlar va jamiyatdagi iqtisodiy tajriba asosida yondashadi. Bu esa verbalizatorlarni nafaqat lingvistik birlik, balki madaniy-kognitiv fenomen sifatida qarashni taqozo etadi.

Tarjima jarayonida verbalizatorlar ko‘pincha yuzaki ko‘chiriladi, bu esa semantik yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Shuning uchun har bir verbalizatorning konseptual maydoni va madaniy konnotatsiyalari chuqur o‘rganilishi zarur.

O‘zbek tilining iqtisodiy terminologiyasini boyitishda lingvokognitiv yondashuvdan foydalanish, xalq tilidagi mavjud birliklarni termin darajasiga ko‘tarish, shuningdek, xalqaro terminlarning mos ekvivalentlarini yaratish zarurati mavjud.

This paper examines the conceptual and practical difficulties of research impact assessment (RIA) by utilizing established frameworks within the context of Central Asia. Kazakhstan, the Kyrgyz Republic, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan make up the region, which is a unique place to study because it is very exposed to multiple hazards, has a lot of financial problems, and is in the process of changing to more modern, risk-informed governance structures. We suggest a multi-faceted framework for evaluating the significance of DRR research specific to the region, offering a comprehensive case study of Uzbekistan's advancements and the influence of research on its institutional reforms.

2. LITERATURE REVIEW

The systematic assessment of research impact, characterized as the evident contribution of research to the economy, society, culture, public policy, health, or environment beyond the academic realm, has become increasingly significant over the past twenty years. There are several well-known frameworks for thinking about and measuring this value, but they all have pros and cons when used in the disaster field.

2.1. Attribution and Quantification Models

Traditional RIA models often rely on a clear **attribution chain** to link research input to a policy or practice outcome.

- **The Payback Framework:** This model divides impact into five areas: creating new knowledge (academic), setting research goals (like new methods), changing policies and practices, helping society, and making money. Attributing disaster avoidance (the core of DRR value) to a specific piece of research is methodologically difficult, even though it is thorough.
- **Logic Models and Theory of Change (ToC):** These frameworks show how research inputs, activities, outputs (like publications and models), and expected outcomes (like policy change and capacity increase) are all connected. ToC is very useful for DRR because it makes researchers spell out the path they want to take from a scientific output (like a PSHA map) to a social outcome (like safer building codes).

2.2. The Public Value Framework

The Public Value approach, which started in public sector management, is very useful for research on disasters. It looks at value not only in terms of how much money it saves, but also in terms of how much research helps public goals and democratic accountability. In DRR, public value comes from:

1. **Legitimacy and Support:** Research that is seen as credible and authoritative by stakeholders (e.g., government, emergency services).
2. **Operational Capacity:** Research that enhances the tools and skills of risk managers (e.g., new early warning systems).
3. **Substantive Outcomes:** Research that directly reduces mortality, morbidity, and economic losses.

Using this framework in Central Asia lets us include things that aren't economic, like better regional cooperation and sharing of risk information across borders (a key public good for the region) that come from joint research projects.

2.3. Suitability for the DRR and Central Asian Context

Disaster research poses a distinct challenge: its significance frequently resides in the prevention of adverse outcomes, which is intrinsically challenging to measure. The Central Asian context also makes things more complicated because:

- **Data Scarcity and Fragmentation:** Historical loss data, especially from the early post-Soviet period, is frequently incomplete, contradictory, or non-standardized, complicating baseline assessment.
- **Capacity Gaps:** There is a lot of good hazard analysis capacity from the Soviet era, but vulnerability analysis and the use of research in financial mechanisms (like insurance) are still weak.

Therefore, any RIA framework that works for the region must put a lot of emphasis on the process-oriented effects of capacity building, data harmonization, and policy integration, as well as the final results.

3. DISASTER RISK PROFILE OF CENTRAL ASIA

Central Asia is one of the world's most disaster-prone areas because of a mix of natural, technological, and geophysical threats. Natural disasters have harmed more than 10 million people and cost more than $3.7 billion in damages over the past 30 years.

3.1. Geophysical Risks: The Dominant Seismic Threat

Earthquakes are the biggest danger in Central Asia, and they have historically killed the most people. The Indian and Eurasian plates crashing into each other makes the tectonic system active, which causes a lot of earthquakes in the area.

- **The Uzbek Seismic Reality:** The country is in an area with a low to very high risk of earthquakes. The capital city of Tashkent and other major cities are very vulnerable. Less than 15% of Uzbekistan's land is at very high risk of earthquakes, but more than half of the country's population and about 65.5% of its GDP come from these areas (for example, the Tashkent and Bukhara regions). An earthquake with a low frequency and a big effect could cost the country almost 6% of its nominal GDP. Because of this risk profile, high-resolution seismic research is important for the country's financial security.

3.2. Hydro-Meteorological Risks and Climate Change

The region is highly vulnerable to floods (fluvial and urban), mudslides, landslides, and drought. Seasonal floods often ruin farmland and hurt the agricultural sector, which many people in rural areas depend on.

- **The Flood and Drought Dualism:** Floods cost Uzbekistan's economy an average of more than $395 million a year, mostly in the Karakalpakstan, Khorezm, and Andijan regions. On the other hand, climate change forecasts show that the risk of droughts and water shortages will rise, which is a long-term, systemic threat to agriculture and water management, especially in the Aral Sea basin area.

3.3. Systemic and Transboundary Risks

Research in Central Asia must confront hazards that transcend national borders.

- **Transboundary Water Management:** Hydrological risks frequently transcend borders, necessitating regional collaboration in early warning systems and collective modeling.

- **Interlinked Vulnerabilities:** An earthquake in a major city or industrial area (like Tashkent) is likely to have a long-term effect on the economy, affecting supply chains, international trade, and national recovery efforts. This shows that we need research that looks at both the physical threat and the economic weakness of the system.

4. ASSESSING RESEARCH VALUE IN CENTRAL ASIA: A MULTI-DIMENSIONAL FRAMEWORK

Given the unique context of Central Asia, a multi-dimensional framework is necessary to assess the value of DRR research, moving beyond purely academic output. We propose three primary dimensions for value quantification: Policy and Governance, Scientific and Technical, and Socio-Economic.

4.1. The Policy and Governance Dimension (Value as Institutional Change)

Research impact is valued by its ability to influence and reform state structures. Metrics include:

- **Policy Adoption Index (PAI):** This index shows how well research recommendations (like specific risk thresholds and zoning maps) have been put into national laws, strategies, and regulatory codes. Case Metric (Uzbekistan): How much the new PSHA model affected the Law on Seismic Safety and the rules for building.
- **Risk Governance Score (RGS):** This score shows how the shift from managing disasters on the fly to a more organized, ongoing approach to risk governance is happening. This is often shown by the institutional mandate and funding for research-informed activities.
- **SFDRR Alignment Metric** shows how well the reporting on SFDRR targets A-D is going. This depends directly on research tools like DesInventar Sendai.

4.2. The Scientific and Technical Dimension

This dimension values the creation of high-quality, practical risk knowledge and the associated local capacity to use it.

- **Knowledge Utility Score (KUS):** Measures how useful research outputs are to people who aren't academics, like city planners and emergency services. This includes making high-resolution models and databases that work together. Case Metric (Central Asia): The creation of a single database of structures, infrastructure, and crop assets for the SFRARR program. This is necessary for consistent risk analysis across the five countries.
- **Capacity Development Index (CDI):** This shows how much local technical knowledge has grown. Case Metric (Uzbekistan): The number of local experts who have learned how to use the new PSHA model and Exposure Mapping, as well as their ability to keep these tools up to date and use them on their own.

4.3. The Socio-Economic Dimension

It is hard to put a number on avoided loss and improved financial resilience, but this is a key part of DRR value.

- **Avoided Loss Ratio (ALR):** A probabilistic estimate of the economic value saved by putting research-based mitigation measures into place (for example, moving or retrofitting based on a PSHA map). A lot of the time, this number comes from the new risk models.
- **Financial Resilience Score (FRS):** This score shows how much research helps with ways to protect your money. Case Metric (Central Asia): Investigate the viability of

creating national catastrophe insurance pools, akin to the Turkish model, for nations such as Uzbekistan and Kazakhstan to financially prepare for significant events.

5. CASE STUDY: THE VALUE OF DRR RESEARCH IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Uzbekistan’s recent efforts provide a clear illustration of how research impact is being generated and measured across the multi-dimensional framework. The country's high exposure to seismic and hydro-meteorological risks has led to strong institutional reforms supported by targeted research.

5.1. Seismic Risk and the Value of PSHA Modeling

The 1966 Tashkent earthquake remains a landmark event, underscoring the necessity of seismic preparedness. The value of recent research in this domain is profound:

- **Advancing the Scientific Baseline:** Research efforts from around the world and in the US have led to the creation of a modern, regionally consistent Probabilistic Seismic Hazard Analysis (PSHA) model. This model uses the latest methods, an updated earthquake catalog, and active fault databases. This model is an unprecedented technical achievement, receiving high marks on the Scientific and Technical Dimension (KUS).
- **Direct Policy Codification:** The Policy and Governance Dimension shows the most important value. The new PSHA model is now the basis for putting the national Law on Seismic Safety into action. This means that building codes, land-use planning, and investments in infrastructure must all be based on risk. This direct link to the law is the most powerful way for policy to have an effect.
- **Economic Risk Quantification:** Research gives us real numbers on possible losses. Modeling shows that an earthquake with a return period of 100 years could cost Uzbekistan $3.6 billion. This number forces governments and financial institutions to recognize and prepare for this risk.

5.2. Hydrological Risk and Flood Resilience

While seismic risk is high-impact, low-frequency, hydrological hazards (floods, mudslides) are higher-frequency and disproportionately affect the agricultural sector and regional populations.

- **Agricultural Adaptation Research:** Research on agricultural adaptation has looked at in-depth diagnostic assessments in places like Samarkand and Surkhandarya to find and test climate-resilient farming methods. The analytical reports that come from this give a full picture of climate risks and how ready farmers are to take steps to adapt. This is a clear example of how protecting livelihoods can create Socio-Economic Value.
- **Spatial Risk Analysis:** It's been very important to focus on mass movements (landslides, mudflows) in mountainous areas like Tashkent Province. Researchers are using Remote Sensing technology to keep an eye on high-risk areas (like the Mingchukur landslide) and stop bad things from happening to important infrastructure, like water reservoirs. This improves Operational Capacity in the Public Value framework.

5.3. Institutionalization of Risk Knowledge: DesInventar Sendai

The core challenge of data fragmentation and inconsistent standards in loss reporting has been directly addressed by research-led institutionalisation.

- **The Power of Standardisation:** The UN Office for Disaster Risk Reduction (UNDRR) coordinated the use of DesInventar Sendai in Central Asia, which is a direct result of

research. This tool is very important because it makes it easier to collect data on damage and loss and is fully compliant with the Sendai Framework Monitor.

- **Value Proposition:** The value here comes from the improved Accountability and Policy Efficacy Feedback. Research-based policy changes can be looked at in the past and the future by providing a structured, verifiable record of disaster impacts. This will improve the country's Policy and Governance Dimension (SFDRR Alignment).

5.4. Financial Resilience and Risk Transfer

Research value encompasses the financial domain, investigating the methods by which nations fund disaster response and recovery efforts. Because governments usually have to pay for most of the costs, which takes money away from other important investments, the research focus has shifted to ex-ante financial planning.

- **Fiscal Preparedness:** Research indicates that nations with more substantial economies, like Uzbekistan, ought to contemplate the creation of national Catastrophe Insurance Pools. This research is valuable as it offers the technical analysis and economic rationale required to transition government policy from ad hoc budgeting to structured, pre-arranged financial mechanisms, thereby creating significant Socio-Economic Value (FRS).

6. CHALLENGES, GAPS, AND FUTURE RESEARCH AGENDAS

While significant progress has been made, particularly in Uzbekistan, several challenges remain in maximising the value of DRR research across Central Asia. Addressing these gaps forms the basis of the future research agenda.

6.1. Data Scarcity and Vulnerability Analysis

Even though projects like SFRARR are trying to make data more consistent, vulnerability analysis is still the weakest part of the risk equation in Central Asia. After the fall of the Soviet Union, analysts put a lot of effort into hazard modeling, but they often ignored how vulnerable assets were in terms of their social, economic, and physical conditions.

- **Future Agenda:** Research should concentrate on disaggregated data collection (age, gender, disability) to comprehend the impact of hazards on various groups. This necessitates grassroots, community-oriented disaster risk reduction research, leveraging current initiatives such as the MCR2030 (Making Cities Resilient) program, which includes cities like Namangan in Uzbekistan.

6.2. Translating Regional Knowledge to Local Action

While regional projects have made high-level models, they often lose their value when they are used at the local level. Mayors and other local leaders need easy-to-use, low-cost tools to help them include risk information in their planning and budgeting for cities.

- **Future Agenda:** There is a need for research that makes useful, smaller city risk profiles and training modules for local officials that focus on how to use them in real life instead of complicated modeling theory. The regional conversation about how cities can be more resilient, which includes Namangan, is a good step forward.

6.3. Integrating Climate Change and Systemic Risk

The full value of DRR research will only be attained when the examination transcends individual, discrete hazards. It is necessary to model how different hazards interact with each other. For example, the risk of earthquakes goes up because of the size of man-made water reservoirs, and landslides caused by climate change happen at the same time.

- **Future Agenda:** Research needs to include high-resolution climate change projections in order to model how future hazards will build on and affect each other. This means getting to know systemic risk, which is when one system fails (like when a drought causes the water supply to fail) and that failure leads to another system failing (like when agriculture fails, people move, and food becomes scarce).

6.4. Sustainable Regional Cooperation

Research is an important factor in keeping regions stable and working together, especially when it comes to risks that cross borders. The benefits of working together on projects go beyond the scientific results. They also include creating long-lasting places for conversation and sharing skills.

- **Future Agenda:** Regional organizations like the Center of Emergency Situations and Disaster Risk Reduction (CESDRR) need ongoing support to become a real "center of excellence" for disaster risk reduction (DRR). The quality and frequency of knowledge sharing and the commitment of governments to the Regional DRR Strategy 2022–2030 should be used to judge the research value.

7. CONCLUSION

The demand for research accountability calls for a strong method for figuring out how valuable and useful investing in disaster risk reduction is. In the case of Central Asia, and especially the Republic of Uzbekistan, a model that only looks at economics is not enough. We need a multi-dimensional framework that can capture value in the areas of Policy and Governance, Science and Technology, and Socio-Economic.

Uzbekistan's experience shows that the most valuable research is that which leads to institutional reform, such as the legislative codification of modern PSHA models for seismic safety and the creation of reliable loss reporting systems like DesInventar Sendai. So, research is valuable not just because it creates new knowledge, but also because it builds capacity and strengthens governance systems so that knowledge can be used and kept. Future research must rectify significant deficiencies in vulnerability data, enhance regional models for local applicability, and incorporate systemic climate risks to guarantee that Central Asia maintains its progress towards increased resilience and sustainable development in accordance with global directives.

ACKNOWLEDGMENTS

This research was co-funded by the European Union. The author acknowledges the support of the European Commission in the framework of the project “RiskGovEU” – Jean Monnet Action Project number 101228848.

REFERENCES

1. Strahan, K., Keating, A., & Handmer, J. (2020). Models and frameworks for assessing the value of disaster research. *Progress in Disaster Science*, 6, 100094.
2. Moore, M. H. (2013). *Recognizing public value*. Harvard University Press.
3. O'Connor, N. (2018). The potential for public value frameworks in Northern Ireland and Ireland. *Administration*, 66, 33-54.
4. Cruz Rivera, S., Kyte, D. G., Aiyegbusi, O. L., Keeley, T. J., & Calvert, M. J. (2017). Assessing the impact of healthcare research: a systematic review of methodological frameworks. *PLoS Medicine*, 14(7), e1002370.

5. Adam, P., et al. (2018). ISRIA statement: Ten-point guidelines for an effective process of research impact assessment. *Health Research Policy and Systems*, 16.
6. Alla, K., et al. (2017). How do we define the policy impact of public health research? A systematic review. *Health Research Policy and Systems*, 15(1), 84.
7. Kuruvilla, S., Mays, N., Pleasant, A., & Walt, G. (2006). Describing the impact of health research: a Research Impact Framework. *BMC Health Services Research*, 6, 134.
8. UNDP Uzbekistan. (2023). *Climate Risk and Resilience in Agricultural Systems of Samarkand and Surkhandarya Regions*. Tashkent: UNDP.
9. UNDRR. (2021). *Making Cities Resilient 2030 (MCR2030) Regional Report: Central Asia Progress*. Geneva: UN Office for Disaster Risk Reduction.
10. World Bank. (2020). *Central Asia Disaster Risk Management Project: Component 1 Technical Report on Exposure Data Harmonisation*. Washington, D.C.: World Bank Group.
11. UNDRR. (2022). *Progress in the Implementation of the Sendai Framework for Disaster Risk Reduction in Uzbekistan: National Report*. Geneva: UN Office for Disaster Risk Reduction.
12. World Bank. (2023). *Uzbekistan Disaster Risk Profile: Probabilistic Modeling of Seismic and Flood Losses*. Washington, D.C.: World Bank Group.
13. Asian Development Bank (ADB). (2018). *Fostering Regional Cooperation in Disaster Risk Reduction in Central Asia*. Mandaluyong City, Philippines: ADB.
14. Bindi, D., et al. (2020). *Probabilistic Seismic Hazard Assessment for Uzbekistan and its Integration into the National Seismic Safety Law*. Journal of Earthquake Engineering and Structural Dynamics, 49(14).
15. Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan. (2022). *Annual Report on Geophysical and Hydro-Meteorological Monitoring and Risk Sites*. Tashkent: MoES.
16. World Bank. (2022). *Technical Assistance Report: Capacity Building for Disaster Risk Financing and Exposure Mapping in Uzbekistan*. Washington, D.C.: World Bank Group.
17. Global Facility for Disaster Reduction and Recovery (GFDRR). (2021). *Systemic Risk and Macro-Fiscal Impact of Earthquakes in Tashkent*. Washington, D.C.: GFDRR.
18. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2019). *Institutional and Capacity Gaps in Disaster Risk Management in Central Asia*. London: EBRD.
19. World Bank. (2019). *Strengthening Financial Resilience to Disaster Risk in Central Asia: Feasibility of Catastrophe Insurance Pools*. Washington, D.C.: World Bank Group.
20. UNDRR & Center of Emergency Situations and Disaster Risk Reduction (CESDRR). (2022). *Report on DesInventar Sendai Implementation and Data Standardization in Central Asia*. Almaty: CESDRR.
21. UN Economic Commission for Europe (UNECE). (2020). *Assessment of Transboundary Flood Risk Management in the Syr Darya River Basin*. Geneva: UNECE.
22. Regional DRR Strategy 2022-2030. (2022). *Central Asia: Regional Strategy for Disaster Risk Reduction 2022-2030*. Almaty: CESDRR.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI ANGLASH VA BAJARISH JARAYONIDA KOGNITIV FAOLLIKNI OSHIRISH METODLARI

Mirzakarimova Anoraxon Ashurali qizi[1],
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna[2]
[1]Farg'ona davlat universiteti magistranti,
[2]Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907573

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv topshiriqlarini anglash va bajarish jarayonida kognitiv faollikni oshirishga qaratilgan metodlar, yondashuvlar hamda samarali pedagogik strategiyalar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Kognitiv psixologiya, konstruktivistik yondashuv, metakognitiv monitoring, o'yin texnologiyalari, vizual model va differensial ta'lim metodlarining o'quvchilarda tafakkur faolligini shakllantirishdagi o'rni aniqlanadi. 8 haftalik eksperimental tadqiqot orqali metodlarining amaliy samaradorligi statistik jihatdan baholanadi. Tadqiqot natijalari mazkur metodlarning topshiriqlarni anglashni 15% dan ortiq oshirishi, mustaqil fikrlashni faollashtirishi, o'quv motivatsiyasini sezilarli kuchaytirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv faollik, anglash jarayoni, boshlang'ich ta'lim, o'quv topshiriqlari, metakognitiv monitoring, scaffolding, gamifikatsiya, vizual modellashtirish, differensial yondashuv.*

Abstract. *This article analyzes methods, approaches and effective pedagogical strategies aimed at increasing cognitive activity in the process of understanding and completing educational tasks in primary school students on a scientific basis. The role of cognitive psychology, constructivist approach, metacognitive monitoring, game technologies, visual models and differential learning methods in the formation of thinking activity in students is determined. The practical effectiveness of the methods is statistically evaluated through an 8-week experimental study. The results of the study show that these methods increase the understanding of tasks by more than 15%, activate independent thinking, and significantly increase learning motivation.*

Key words: *cognitive activity, understanding process, primary education, educational tasks, metacognitive monitoring, scaffolding, gamification, visual modeling, differential approach.*

Kirish. Global ta’lim tizimining so‘nggi 20 yillik rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich ta’limga bo‘lgan talab keskin o‘zgargan. Hozirgi kunda o‘quvchining tayyor bilimni eslab qolishi emas, balki topshiriqni anglash, mazmunni tahlil qilish, yechimni topish, uni asoslash, o‘z faoliyatini nazorat qilish kabi jarayonlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan boshlang‘ich sinf bosqichi kognitiv jarayonlar shakllanishining eng sezgir davri bo‘lib, bu davrda o‘quv topshiriqlarini anglash mexanizmi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli metodlarning to‘g‘ri tanlanishi o‘quvchining butun ta’lim faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ko‘plab o‘quvchilar topshiriq shartini to‘liq tushunmaydi, uni bosqichlarga ajrata olmaydi, maqsadni aniqlashda qiynaladi. Diagnostik tadqiqotlar quyidagilarni tasdiqlaydi:

- 47-55% o‘quvchi topshiriqni to‘liq anglamasdan bajarishga kirishishini;
- 38% o‘quvchi birinchi urinishdayoq bajara olmasligini;
- 30% dan ortiq o‘quvchilar e’tiborning beqarorligi sabab natijaga erisha olmasligini ko‘rsatadi.

Shu bois kognitiv faollikni oshirish – boshlang‘ich ta’lim sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1) kognitiv faollikni oshirishning integral modelini taklif qiladi;
2) boshlang‘ich sinfga mos 6 ta kompleks metodni amaliy sinovdan o‘tkazadi;
3) metodlarning statistik ta’sirini isbotlaydi;
4) o‘quv topshiriqlarini anglashni baholovchi diagnostik mezonlarini ishlab chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kognitiv rivojlanish nazariyalari:

Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlariga ko‘ra, 7-11 yosh oralig‘ida o‘quvchi “mantiqiy operatsion” bosqichga o‘tadi. Bu bosqichda u analiz, sintez, solishtirish operatsiyalarini shakllantira boshlaydi.

Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi boshlang‘ich ta’limda ayniqsa samarali. Unga ko‘ra topshiriqlar murakkablik darajasi o‘quvchining mavjud bilimlari bilan ozgina farq qilishi kerak.

Bruner bilishning uch shaklini ajratadi: harakat, tasvir va tushuncha. Boshlang‘ich sinfda aynan tasviriy va harakatli bilish ustun.

Metakognitiv nazariya:

Flavell metakognitiv monitoringni ikki turga bo‘ladi:

1. Metakognitiv bilim – o‘z bilimi va cheklovlarini bilish.
2. Metakognitiv nazorat – o‘quv jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

Metakognitiv strategiyalar topshiriqni anglashni 35-40% oshiradi (Hacker, 2018).

O‘quvchini nazorat qilish faolligi motivatsiyasini kuchaytiradi (Zimmerman, 2015).

Faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish:

Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, har qanday bilim faoliyat jarayonida, faol amaliyot orqali shakllanadi. Shu bois topshiriqlar muammoga asoslangan, izlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

O‘yin texnologiyalari va gamifikatsiya (gamifikatsiyaning asosiy elementlari):

- maqsad
- qiyinchilik
- reyting
- rag‘bat
- ijodiy tanlov

O‘yin o‘quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, topshiriqni anglash jarayonini qulaylashtiradi.

Vizual modellashtirish (tasvir, diagramma, struktura sxemalari):

- murakkab topshiriqlarni soddalashtiradi;
- axborotni qayta ishlashni tezlashtiradi;
- xotirani mustahkamlaydi.

Differensial ta’lim:

Tomlinsonning differensial yondashuvi o‘quvchilarning individual farqlarini hisobga olishni taqazo qiladi:

- qobiliyat
- bilim darajasi
- o‘quv sur’ati
- qiziqish

Bu esa topshiriqlarni anglash va bajarish jarayonini yengillashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida topshiriqlarni anglash va bajarish jarayonida kognitiv faollikni oshirish metodlarining samaradorligini aniqlash tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kognitiv faollikni oshiruvchi metodlarni nazariy o‘rganish.
2. Metodlar asosida tajriba dasturini ishlab chiqish.
3. Tajriba natijalarini statistik tahlil qilish.
4. Yakuniy xulosalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishtirokchilari:

Tadqiqotda Farg‘ona shahar “Ideal orzular” maktabining 3–sinfidan 64 nafar o‘quvchi qatnashdi. Tajriba guruhi–32 nafar, nazorat guruhi–32 nafar o‘quvchilarga ajratilindi.

Tadqiqot bosqichlari:

1. Diagnostik bosqich – o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini anglash darajalari aniqlandi, kognitiv faollik testlari olindi.
2. Eksperimental bosqich – 8 hafta davom etdi va 6 ta metod qo‘llanildi.
3. Yakuni va tahlili – natijalar solishtirildi va statistik farqlar ANOVA orqali tekshirildi.

Taqdiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) *Metakognitiv monitoring:*
   “Men nima qilmoqchiman?”
   “Topshiriq maqsadi nima?”
   “Qanday yo‘l tutaman?”
   “Natija to‘g‘rimi?”
2) *Scaffolding (bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash)* – topshiriqlar 4 ta bosqichga bo‘lindi:
   Anglash

Rejalashtirish
Amalga oshirish
Tekshirish

3) *Vizual modellashtirish:*
Mind-map
Venn diagramma
Struktura jadvali
Ketma-ketlik sxemasi
4) *O‘yin texnologiyalari*:
Rol o‘yinlari
Gamifikatsiya elementlari
Muammoli o‘yinlar
5) *Differensial topshiriqlar (3 darajada):*
Sodda
O‘rta
Murakkab

TADQIQOT NATIJALARI

Diagnostika natijalari:

T/r	Ko‘rsatkich	O‘rtacha natija
1	Topshiriqni anglash	52%
2	E’tibor barqarorligi	57%
3	Mustaqil bajarish ko‘nikmasi	49%
4	Kognitiv faollik	51%

Eksperiment natijalari:

T/r	Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1	Topshiriqni anglash	+7%	+34%
2	Mustaqil bajarish	+5%	+29%
3	Metakognitiv faollik	+4%	+31%
4	Motivatsiya	+6%	+27%
5	Xatolar soni	-3%	-25%

Statistik tahlil:
1) ANOVA orqali farqlar $p<0.05$ darajasida ishonchli;
2) tajriba guruhida o‘sish nazorat guruhiga nisbatan 4,2 barobar yuqori;
3) o‘yin va vizual metodlar eng yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.

O‘quvchilarning sifat o‘zgarishlari:
- o‘quvchilarda topshiriqni anglamasdan bajarishga shoshilish kamaydi;
- rejalashtirish ko‘nikmasi shakllandi;
- o‘z faoliyatini baholash odat tusiga kirdi;
- o‘yin asosidagi topshiriqlarga qiziqish kuchaydi;
- fikr bildirish faolligi oshdi.

MUHOKAMA

Metakognitiv strategiyalarning roli. O‘quvchilar o‘z fikrlash jarayonini boshqarishni o‘rgandi. Bu esa topshiriqlarni: anglash, tahlil qilish, rejalashtirish, tekshirish jarayonlarining yaxshilanishiga olib keldi. Metakognitiv yondashuv ayniqsa murakkab topshiriqlarda samarali bo‘ldi.

O‘yin metodlarining kuchli tomoni. O‘yinlar kognitiv zo‘riqishni kamaytiradi, motivatsiyani oshiradi, faol ishtirokni talab qiladi, tafakkurni faollashtiradi.

Vizual modellar ta’siri. Vizual modellar murakkab axborotni soddalashtirdi. O‘quvchilar topshiriqni ko‘z oldiga keltira olgani bois anglash, tartiblash, xotirada saqlash jarayoni kuchaydi.

Differensial yondashuvning afzalligi. Zaif o‘quvchilar uchun mos yengil topshiriqlar, kuchli o‘quvchilar uchun murakkab vazifalar berilishi stressni kamaytirdi, o‘quvchini individual o‘sishga undadi, natijalarning barqaror oshishiga olib keldi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv topshiriqlarini anglash va bajarish jarayoni ko‘plab omillar bilan bog‘liq murakkab kognitiv faoliyat ekanini ko‘rsatdi. Shu jarayonni takomillashtirish, o‘quvchilarda bilishga doir ichki faollikni shakllantirish, topshiriqlarni anglab bajarishga yo‘naltirish – ta’lim sifatining asosiy garovidir. Tadqiqot davomida qo‘llangan kognitiv yondashuvga tayangan metodlar majmuasi o‘quvchilarning fikrlash jarayonini chuqurlashtirish, axborotni qayta ishlash, topshiriq maqsadini anglash, rejalashtirish va o‘z faoliyatini nazorat qilish kabi muhim intellektual jarayonlarning sezilarli darajada o‘sishiga olib keldi.

Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, metakognitiv monitoring o‘quvchilarda o‘z fikrlash jarayonini kuzatish va boshqarishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirdi. Bu esa topshiriqlarni anglash va ularni mustaqil bajarish jarayoniga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Vizual modellar, diagrammalar va grafik sxemalarning qo‘llanilishi esa murakkab tushunchalarni soddalashtirdi, axborotni tizimlashtirishni osonlashtirdi va xatolar sonining sezilarli kamayishiga sabab bo‘ldi. O‘yin texnologiyalari va gamifikatsiya elementlari esa o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ularda o‘qishga bo‘lgan ijobiy ruhiy fonni shakllantirdi. Ayniqsa, motivatsiyaning 27% ga ortgani o‘yin faolligining ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

Scaffolding yondashuvi – topshiriqlarni bosqichma-bosqich, o‘quvchining kognitiv imkoniyatlariga mos tarzda taqdim etish – o‘quvchilar faoliyatini ongli tashkil qilishiga yordam berdi. Bu yondashuv o‘quvchilarga murakkab vazifalarni kichik bo‘laklarga ajratib, har bir bosqichni anglab bajarishga imkon berdi. Differensial ta’limning qo‘llanilishi esa individual farqlarni hisobga olish orqali o‘quvchilarni stressdan holi, imkoniyatiga yarasha rivojlanishga yo‘naltirdi.

Natijalar statistik tahlili tajriba guruhida kuzatilgan o‘sish tasodifiy emasligini, balki qo‘llanilgan metodlar bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatganini isbotladi ($p < 0.05$). Umuman olganda, metodlarning kompleks tarzda birgalikda qo‘llanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faolligini 30–35% darajada oshirishga erishdi, bu esa qisqa muddatda yuqori natija hisoblanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi umumiy ilmiy-pedagogik xulosalarga kelindi:

1. Kognitiv faollikni oshirish boshlang‘ich ta’limda asosiy omil bo‘lib, o‘quvchining topshiriqni anglash, mazmunni qayta ishlash va yechim topish qobiliyatini sifat jihatidan oshiradi.
2. Metakognitiv strategiyalar o‘quvchilarda o‘z fikrlash faoliyatini ongli boshqarish malakasini shakllantiradi, bu esa mustaqil o‘rganishning poydevorini yaratadi.

3. Vizual modellar murakkab o‘quv axborotlarini soddalashtirishning eng samarali vositasi bo‘lib, o‘quvchilar tafakkurining strukturaviy rivojlanishiga xizmat qiladi.
4. O‘yin texnologiyalari va gamifikatsiya o‘quvchilar motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi va faol kognitiv ishtirokni ta’minlaydi.
5. Scaffolding metodlari o‘quv topshiriqlarini anglashni osonlashtiradi, o‘quvchiga bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini yaratadi.
6. Differensial yondashuv individual o‘quv sur’atlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim samaradorligini optimallashtiradi.
7. Tadqiqot metodlari boshlang‘ich ta’lim jarayoniga to‘liq integratsiya qilinsa, o‘quvchilarning tafakkur salohiyatini oshirib, ularni keyingi bosqichlardagi ta’limga puxta tayyorlaydi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv topshiriqlarini anglash va bajarish jarayoniga kognitiv yondashuvning amaliy joriy etilishi nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshirishini, balki o‘quvchi shaxsining intellektual rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Ushbu metodik yondashuvlar ta’lim amaliyotida muntazam qo‘llanilganda, boshlang‘ich ta’limning umumiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Piaget, J. (1969). The Psychology of the Child. Basic Books.
3. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.
4. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and Cognitive Monitoring. American Psychologist, 34(10), 906–911.
5. Ausubel, D. (1978). Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart & Winston.
6. Sweller, J. (1988). Cognitive Load Theory. Cognitive Science, 12(2), 257–285.
7. Mayer, R. (2001). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
8. Zimmerman, B. (2015). Self-Regulated Learning: Theories and Models. Routledge.
9. Marzano, R. (2017). Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies. ASCD.
10. Slavin, R. E. (2018). Educational Psychology: Theory and Practice. Pearson.
11. Clark, R. (2016). Instructional Design Principles. Wiley.
12. Johnson, D. W. (2009). Cooperative Learning: Improving University Instruction. McGraw-Hill.
13. Novak, J. (1998). Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools. Lawrence Erlbaum.
14. Tomlinson, C. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.
15. OECD. (2021). Primary Education Review: Global Trends and Insights. OECD Publishing.
16. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report. UNESCO Publishing.
17. Fletcher, J. (2019). Gamification in Education: Motivation and Engagement. Educational Technology Review, 14(2), 55–73.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

CHET TILIDA KASBIY MULOQOT KO'NIKMALARINI CLIL TEXNOLOGIYASI 4C-MODELI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Murtazaeva Aisafar Bazarkulovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi Ingliz tili nazariy fanlar
kafedrasi katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17907635

Annotatsiya. *Ushbu maqola nofilologik OTM talabalarining chet tilida kasbiy muloqot madaniyatini CLIL texnologiyasi 4C-Modelini darsda qo'llashning afzalliklari asosida til ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *CLIL texnologiyasi, 4C-Model, hard CLIL, soft CLIL, kasbiy muloqot madaniyati, kasbiy bilimlar, til ko'nikmalari.*

Kirish. Dunyo ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlash, horijiy tillarni o'qitish jarayonida ta'lim sifatini modernizasiya qilish, kasbiy, kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishga ehtiyoj ortgani ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kun mutaxassisining xalqaro standartlar darajasiga mos, kompetentli va raqobatbardoshli bo'lishida, uning kelgusi faoliyatida samarali kasbiy muloqot yurita olishi bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunda talabaga mutaxassisligi yo'nalishida chet tilini, aniq fanning kasbiy sohaviy terminlari, leksik va grammatik xususiyatlari o'rgatilib, kelajakda o'z sohasiga oid adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, til ko'nikmalarini nutqda erkin qo'llash malakalarini hosil qilish va chet tilida kasbiy muloqot madaniyatini takomillashtirish zaruriyati bilan izohlanadi.

Respublikamizdagi nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'qitishdan asosiy maqsad chet tilida zamonaviy kasbiy bilimlarni egallash va o'z sohasida ijodiy kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, kasbiy muloqot madaniyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bunda bo'lajak mutaxassislar tomonidan menejment, biznes, marketing, iqtisodiyot sohalarida va ishlab chiqarishda ilg'or xorij tajribalari asosida samarali bilim olish, interfaol usullardan foydalanib ta'lim mazmunini o'rganish va jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratilmoqda. YUNESKO va Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Xalqaro ta'lim konseptsiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Ta'lim va ko'nikmalar kelajagi 2030" loyihasida ta'lim sifatini oshirish alohida e'tirof etilmoqda [1].

Bo'lajak mutaxassislar o'z yo'nalishi doirasida samarali faoliyat olib borishi shuningdek, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, turizm, bank, ta'lim va boshqa soha vakillarining biror bir chet tilida kasbiy muloqot yurutishdagi nutq ko'nikmalari yetarli darajada emasligi barchaga ma'lum. Jumladan, bo'lajak kadrlarning chet ellik malakali mutaxassislar bilan *bevosita og'zaki, yozma*

va rasmiy hujjatlarni talab darajasida olib borishi bu talabalarning o‘z sohalarining yetuk mutaxassisi bo‘lib shakllanishlarida katta yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning faoliyatida chet til ta’limini kasbga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, darsda CLIL texnologiyasi 4C-modeli asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy muloqot yuritish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Talabaning (Content and Language Integrated Learning (CLIL)) texnologiyasi asosida ingliz tili mashg‘ulotida o‘rganadigan mazmun (kontent) an’anaviy xorijiy til darsi mazmuniga nisbatan yuqori motivatsion salohiyatga ega. Bu o‘qitish texnologiyasi talabalarga tilni o‘rgatish borasida katta e’tibor bilan o‘rganadigan qiziqarli va sermazmun materialdir. Fan va til mazmunini integratsiyalash doirasida o‘qitish an’anaviy ta’lim jarayoniga nisbatan jadalroq va muvaffaqiyatli kechadi. CLIL orqali talabalar bir vaqtning o‘zida menejment tushunchalari bo‘yicha o‘z bilimlarini chuqurlashtirib, til bilimlarini, xususan, ixtisoslashtirilgan terminologiya va nutqda mukammal o‘rganadilar. Bundan tashqari, CLIL texnologiyasi tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va samarali muloqotni, menejment sohasi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislar uchun muhim kompetentsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

CLIL o‘qitish texnologiyasi – ikki tillilikni amalga oshirish mexanizmi bo‘lib, ta’lim oluvchi obyektlarda, ya’ni talabada o‘z ona tili bilan birgalikda o‘zga tilni o‘rganish imkonini beradi. CLIL so‘zining ma’nosi – content bu “fan”, “soha”, “mavzu” bo‘lsa, language – “til”, intigratsion – “integratsiya, aloqadorlik”, learning – “o‘rganish” kabi inglizcha so‘zlarning bosh harflari qisqartmasidan hosil bo‘lgan tushunchani ifodalaydi. CLIL texnologiyasi o‘rganiladigan yangi mavzuni, sohani, fanni xorijiy tilda, ya’ni o‘zga tilda o‘rganishni tavsiya etadi.

CLIL qisqartmasi “*Fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘rganish*” degan ma’noni anglatadi. Bu fan mazmuni va til o‘rganish maqsadlarini birlashtirishni o‘z ichiga olgan ta’lim yondashuvidir. CLIL sinfida talabalar fan, tarix yoki geografiya kabi mavzu mazmunini chet yoki ikkinchi til orqali o‘rganadilar, bu esa o‘qitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. CLIL texnologiyasi bir vaqtning o‘zida til va mavzu bo‘yicha bilimlarni oshirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarga mazmun va til ko‘nikmalarini chuqurroq tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradigan chuqur o‘rganish tajribasini taqdim etadi.

Kontekst va tilni integratsiya qilib o‘rganish atamasi (Content and Language Integrated Learning (CLIL)) ilk bor D.Marsh tomonidan 1994 yilda qo‘llanilgan. D.Marsh fikriga ko‘ra “integratsiya qilingan fan – til o‘qitish (CLIL) tushunchasi fanlar yoki bunday fanlar doirasida o‘qitish ingliz tilida olib borilganda anglashiladi va bu yerda, ushbu kasbiy fanning mazmunnini o‘rganish va bir vaqtning o‘zida xorijiy tilni o‘rganish kabi ikkita maqsadga erishish nazarda tutiladi”. Shu bilan bir qatorda, D. Marsh CLIL texnalogiyasiga yana bir muhim g‘oyani ilgair surgan. U “*CLIL refers to situations where subjects, or parts of subjects, are taught through a foreign language with dual-focused aims, namely the learning of content and simultaneous learning of aforeign language*” deb e’tirof etgan [2].

K.Grigorevanong fikrga ko‘ra D.Marsh tomonidan berilgan tushuncha juda keng ma’noda talqin qililnishini va faqatgina Yevropa ilmiy-metodik adabiyotlarida Kontekst va Tilni Integrallashtirib O‘rganishning (Content and Language Integrated Learning(CLIL)) 40 dan ortiq talqini qo‘llanilishini ta’kidlab o‘tish lozim [3].

Masalan, Yevropa kommisiyasi tomonidan qabul qilingan ta’rifda CLIL uning doirasida chet tili ta’limi vositasi sifatida amal qiladigan bir tushuncha deb qaraladi. D.Marshning ta’rifiga ko‘ra esa, CLIL fanni va bir vaqtning o‘zida bevosita tilni ham o‘rganishni nazarda tutadi.

D.Gaddol CLIL texnologiyasidan foydalanish talabalarga chet tilini o‘zlashtirganlik darajasini ancha yuqoriga ko‘tarish imkonini beradi deb hisoblaydi. D.Gaddol fikriga ko‘ra, “o‘rganilayotgan fanni o‘zlashtirish uchun chet tilini yuqori o‘zlashtirganlik darajada bilish muhim hisoblanmaydi. Shuningdek, chet tilini xususan, ingliz tilini asosiy malaka (core skill) tili sanaladi, chunki uni o‘zlashtirish talabalarga muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. CLILni bunday tushunish internet texnologiyalari va globalizatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi tufayli ta’lim sohasida va umuman jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sababli o‘ta muhim hisoblanadi”[4].

Ph. Ball ham CLIL texnologiyasiga o‘z munosabatini bildirgan ingliz olimi sanaladi. Unga ko‘ra “fan-til integratsiyasi g‘oyasi boshqa g‘oyalarga nisbatan yuqori rag‘batlantirish (motivatsion) salohiyatiga ega bo‘lishining ob’ektiv jihatlari mavjud”[5].

Ph Ball, D.Gaddoll, D.Marsh, D.Coyle, S.Darm va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar o‘quv jarayonida fan-til integratsiyasini amalga oshirishda ikki asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatishadi:

“Kuchli”(Hard CLIL)- to‘liq va qisman immersion dastur – kasbiy fanlar chet tilida o‘rganilib, o‘quv jarayonida birinchi navbatda, fan mazmunini o‘rganishga qaratilgan ta’lim;

“Kuchsiz”(Soft CLIL)- asosan til o‘rganishga asoslangan ta’lim- chet til darslarida, kasbiy fanlar mazmunini qisman o‘rganishga qaratilgan ta’lim. Bunday bo‘linish shartli ekanligini, ikkala yondashuv bir vaqtning o‘zida bir-birini o‘zaro to‘ldirib turishini ta’kidlab o‘tish lozim.(*1-jadvalga qarang*).

1-jadval.

“Kuchli”(Hard CLIL) va *“Kuchsiz”(Soft CLIL)* ni solishtirganda farqi

	Kuchli “Hard CLIL”	*Kuchsiz* “Soft CLIL”
Fan	Asosiy fanlar (STEAM, menejment)	Oddiy mavzular, umumiy bilimlar
Til darajasi	Yuqori til ko‘nikmasi kerak	Boshlng‘ich yoki o‘rta darajada til
Maqsadi	Fan va tilni chuqur o‘rganish	Tilni rivojlantirish asosiy maqsad
Til vositasi	To‘liq chet til	Aralash (ona tili va chet tili)

Kuchli “Hard CLIL” – bu CLILning intensiv shakli bo‘lib, unda asosiy fanlar (masalan, menejment, iqtisod, matematika) to‘liq chet tilida o‘qitiladi.

Xususiyatlari:

- chet tili o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi, maqsad bu tilni chuqurroq o‘zlashtirish;
